77-rasm. Qizillo'ngach sxematik ko'rinishi. (LA – chap bo'lmachar)



78-rasm. Oshqozon anatomik tuzilishi va qon bilan ta'minlanishi.



79-rasm. O'n ikki barmoqli ichak anatomik tuzilishi.

USULLAR

Oshqozon ichak kasalliklari tekshiruvida birlamchi va asosiy usullar – endoskepiya va kontrast rentgenoskopiya.

Endoskepiya afzalligi. 1) shilliq qavatni baxolash ayniqsa erta o'zgarishlarni (yallig'lanish, croziya va rak), 2) kichik xirurgik, diagnostik va davolash muolajlari (operatsiyalar, qon ketishlarni to'xtatish, lazer, maxaliy dori yuborish qoidalari) 3)urzon 4)nutqianish yo'q.

Endoskepiya kamchiliklari: 1) o'tkazilishi bemor uchun og'ir 2) funksional ma'lumot bermaydi 3) ingichka ichak distal qismalarini ko'rib bo'lmaydi 4) erta operatsiyadan so'ng qo'llab bo'lmaydi 5) oshqozon-ichaklarda faqat shilliq qavatni ko'radi, boshqa anatomik ma'lumot kam beradi (a'zo joylashishi, shakli, konturlari, hajmi).

Bariy bilan rentgenoskopiya ahamiyati. 1) funksional ko'rsatkichlar (peristaltika, evakuatsiya, sfinkterlar xolati) 2) umumiyyat anatomiq ma'lumot (joylashishi, shakli, o'lchamlari va konturlari) 3) shilliq qavut holati (lekin endoskopiyadan qolishadi).

Endoskepiya va kontrast rentgenoskopiya oshqozon ichakni ichidan ko'radi, a'zoda tashqarida tarqalgan jarayonni ko'rsatmaydilar. Jarayon devorga tarqalishini rentgenoskopiya peristaltika lokal pasayishidan shubha qilish mumkin.

Flip PDF Professional
<http://www.flipbuilder.com>

RENTGENOSKOPIYADA MODDALAR.

- 1) bariy sulfat – asosiy modda, faqat erta operatsiyadan so'ng davrda va perforatsiyaga shubxa bo'lganda qo'llanilmaydi. Lokal peritonita olib kelishi mumkin. Xususiyatlari – a) ichakda so'rilmaydi 2) inert modda (biologik suyuqliklar bilan reaksiyaga kirishmaydi) 3) o'rab oluvchi (shilliq qavatga yaxshi yopishadi va uni tasvirlashga imkon beradi 4) davolovchi (o'rab oluvchi xususiyat bilan bog'liq, shilliqni o'zi bilan olib tushib ketadi) 5) ma'zasiz.
- 2) havo, gaz – asosiy kontrast modda hisoblanadi, doim bariy bilan birga qo'llaniladi – bu uslubni ikki moddali kontrastlash deb ataladi. bariy xavo bilan birga qo'llanilganda shilliq qavat to'g'risida (ayniqa poliplar) qo'shimcha ma'lumot olinadi. Oshqozonga gaz yuborish uchun gaz hosil qiluvchi dori vositalari qo'llaniladi yoki oddiy soda. Yo'g'on ichakga pufagi Professional yuboriladi.
- 3) suvda yoki yog'da eriydigan kontrastlar. Bu kontrastlar faqat erta operatsiyadan so'ng (anastomoz holati), perforatsiyalarda, fistulalar hosil bo'lganda qo'llaniladi. buriyga nisbatan bu moddalar «yumshoqroq» hisoblanadi, lekin shilliq qavatni yaxshi ko'rsatmaydi.

Kontrast rentgenoskopiya o'tkazilish uslubi.

Tayyorgarlik – qizilo'ngach, oshqozon va ingichka ichak uchun ochlik, yo'g'on ichak uchun klizma 2 maxal. Qizilo'ngachni o'ziga tayyorgarlik kerak emas, lekin ko'pincha bu a'zo oshqozon bilan birga tekshiriladi, shuning uchun ochlik kerak bo'lishi mumkin.

Tekshiruv ko'pincha 2 bosqichdan iborat bo'ladi – 1)noto'liq faza (faqat shilliq qavat baxolanadi, bariy miqdori oz bo'ladi va shilliq qavat bo'yicha tarqalgan bo'ladi) 2)to'liq faza (funktional va anatomik ma'lumot olinadi, a'zo buriyga bo'lgan bo'ladi). Bu fazalur ketma-ketligi turli bo'lishi mumkin, masalan

oshqozonda bermor boshida 1-2 qultum bariy ichadi, va shifokor qoringa bosib bariyni shilliq qavati bo'yicha tarqatadi (noto'liq bosqich), keyin bermor 1 stakan bariy ichadi (to'liq bosqich). Yo'g'on ichak tekshiruviga (irrigoskopiya) bermorga boshida 1 1 bariy klizma qilinadi (to'liq faza), keyin bermor hojatxonaga borib kelgandan keyin noto'liq faza bo'ladi. Qizilo'ngachda bariy o'tish vaqtida to'liq faza, o'tib bo'lgandan keyin (5-10 s) noto'liq faza bo'ladi. Unchaliq aniq anatomik ma'lumot kerak bo'lmaganda (asosan bu qisman ichak tutilishda passaj o'rganiladi), yo'g'on ichakni antograd yo'l bitan to'latib ko'rish mumkin, bunda bermor 1-2 stakan bariy ichadi va ertasi kuni tekshiruvga keladi, bariy axlat bilan aralashgan bo'ladi va ma'lumot aniq bo'lmaydi. Rak, poliplar, yaralarda va boshqa muhim patologiyalarda faqat irrigoskopiya qilinishi lozim. Ingichka ichak tekshirilishi – 1) 1 stakan bariy va 15-30 min ichida ingichka ichak tasvirlanadi 2)enteroklizma orqali (nazoenteral zond orqali bariy ingichka ichakka yuboriladi, ichak yuxshiroq to'ladi va o'zgarishlar yaxshiroq ko'rinadi.

Oddiy (kontrastsiz) rentgenografiya ahamiyati.

1. Ichak tutilishi – kloyber kosalari simptomii
2. Bo'sh a'zo perforatsiyusi – diafragma ostida o'roqsimon shaklida gaz yig'ilishi (yorug' bo'lib ko'rindi).
3. Rentgen pozitiv yot tana:
4. Qorin bo'shilig'i kaltsimatlari - o't qopida toshlar, limfa tugunlar oxaklanishi, venalarda (flebolitlar), o'smalar, kistalar, ichakdag'i axlat oxaklanishi (koprolitlar).
5. Gaz hosil qiluvchi absesslar – suyuqlik va gaz gorizontal satxi ko'rinadi.
6. Astsits
7. Ichak pnevmatozi
8. Oshqozon gaz pufagi o'zgarishlari – axalaziyada (boshqa keskin stenozlarda), qizilo'ngach diafragma teshigi churralarida oshqozon gaz pufagi kichrayadi,

yo'qoladi, kardioezofageal o'smalarda deformatsiya bo'lishi mumkin va uning fonida o'sma soyasi ko'rinishi mumkin.

Sonografiya, KT va MRT ahamiyati. Bu usullar ko'pincha xavfli o'smada qo'llanadilar va uning bosqichini aniqlaydilar. o'smani bosqichi - a'zo devoriga o'sishi, tashqariga turqalishi, boshqa a'zolarga o'sib kirishi, regionar limfa tugunlarga va boshqa a'zolarga metastaz berishidan iborat.

Sonografiyani transabdominal va endoskopik turlari bor. Transabdominal oshqozon, ingichka va yo'g'on ichaklar uchun qo'llanilishi mumkin, asosan o'smani ekstraorgan turqalishi va boshqa parenximatoz a'zolarga metastazlarni ko'rsatadi. Endoskopik sonografiyani – 1) intraezofageal, 2) intragastral va 3) intrarektal ushlublari bor. Lekin 1chisi ko'proq yurak uchun qo'llaniladi,

3 chisi ko'proq erkaklarda prostatu bezini ko'rish uchun qo'llaniladi. Intragastral sonografiya oshqozon uchun qo'llaniladi va o'smani qaysi qavatga (shiliq, mushak, seroz) o'sganini ko'rsatadi. Devori o'sganimi aniqlashtirishga Professional yaxshi hisoblanadi. KT va MRT transabdominal sonografiya borgan ma'lumotni beradilar, lekin aniqroq, va qo'shimcha regionar limfa tugunlar holatini aniqlaydilar. Bundan tashqari bu usullarga ichuk, o'pkadagi havo, suyuklar halil bermaydi.

Radiomuklid tekshiruvlar.

Quyidagi yo'naliishlarda olib boriludilar.

1. Oshqozon-ichak funksional holatini o'rganish (peristaltika, evakuatsiya, reflyukslar). Bariy bilan rentgenoskopiya qaraganda bu usul fiziologik hisoblanadi chunki radiofarmmodda kashaga (bo'tqaga) qo'shib beriladi (bariy esa suyuqroq modda va tezroq oshqozon-ichak traktidan o'tadi) va bundan tashqari natijalarni ob'ektivlash mumkin – musalan radioaktivlikni o'chab gastroezofageal reflyuksini yoki stenozda oshqozonda qancha modda qolganini o'chash mumkin. Bariy bilan tekshiruvda bu ko'rsatkichlar taxminan aytildi.
2. Ichaklardan ayniqsa ingichka ichak distal qismidan yashirin qon ketishlar (endoskopiyada ko'rib bo'lmaydi, axlat rangi o'zgarmasligi mumkin) – eritrotsitlarga radiosaktiv modda biriktiriladi va qonga yuboriladi, axlatni radioaktivligini o'chab ichakdan qon ketishini tasdiqlash mumkin. Angiografiyaga nisbatan bu usul sezgirroq hisoblanadi.
3. Ichaklur aro abscessalar. Mayda bo'lsa boshqa usullar (KT, MRT) ko'rsatmasligi mumkin. Bemorni leykotsitlari olinadi, ularga radioaktiv modda biriktiriladi va qonga yuboriladi. Radioaktiv leykotsitlar abstsess sohasida yig'ilib «sissik o'choq» simptomini hosil qiladilar.
4. Malabsorbsiya sindromini o'rganish. Vitamin, yog' moddalarini hazm bo'lishini o'rganish uchun bu moddalar radioaktiv holda bemorga beriladi. Hazm bo'lsa tanada qoladi, hazm bo'lmasa axlat bilan tushib ketadi. Tana yoki axlat radiometriyasini o'tkazib qanchasi hazm bo'lganini aytish mumkin.

Oshqozon misolidu usullarini qiyosiy ahamiyati.

83

Usul	Shilliq qavat	Devor ichki	Devor tashqari	Funktsiya
Endoskopiya	++++	±	-	+
Rentgenoskopiya vaso4	+++	+	-	+++
Ta sonografiya	-	++	+++	-
Endoskopik sonografiya	-	++++	+	-
Kt, mrt	-	++	++++	-
Radionuklid	-	+	-	++++


izoh: +++++ - eng yaxshi usul

Qizilo'ngach kasalliklari.

Funksional kasalliklari. 1)gipermotorika 2)gipomotorika 3)axalaziya


Qizilo'ngachda 3 xil peristaltika kuzatiladi – birlamchisi ovgut uchriganda kuzatiladi, ikkilamchisi birlamchi peristaltikadan keyin tozulmagan ovgutni haydaydi. Bu ikkala peristaltika koordinatsiyalashgan peristaltika. Uchlamchi peristaltika noto'g'ri, mayda, ovgutni haydamaydigan peristaltika keksa odamlarda va bemorlarda uchraydi. Gipermotorika quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin – lokal spazm, «taspix», «eshtopoz» shaklida qizilo'ngach. Gipomotorikada peristaltika sost bo'ldi, qizilo'ngach kengayadi va uning tonusi pasayadi.

84




80-rasm. Diffuz qizilo'ngach spazmi tufayli yuzaga kelgan „shtuporsimon“ qizilo'ngach.

A-rasm. „Shtuporsimon“ qizilo'ngach + pulsion divertikul (strelka).




81-rasm. Normal qizilo'ngach va qizilo'nguch axalaziysi.

Axalaziyada kardial sfinkter faoliyati buziladi, qizilo'ngachni distal qismi «sichqon dumi», chumchuq tumshug'i shaklidu. Axalaziya sababi nuerbach plexus degeneratsiyasi bilan bog'liq. Bu kasallikda parodoksal disfagiya kuzatiladi, suyuqlik ushtanib qoladi, «qattiq» ovqat o'tadi. Axalaziya rentgen belgilari: 1)qizilo'ngach distal qismi simmetrik chegarasi tekis torayishi 2) qizilo'ngach diffuz suprastenotik kengaygan, uzunlashgan, xattoki ko'ks oralig'i soyasini ham kengaytirishi mumkin. 3)oshqozon gaz pufugi kichraygan (yo'qolgan), 4)ko'ks oralig soyasi fonida gorizontal suyuqlik darajasi 5)traxeya oldinga siljishi 6)aspiratsion pnevmoniya.



82-rasm. Axalaziya ko'ks oraligi o'rta darajada kengaygan. Yuruk siluetida havo-suyuqlik satxini aniqlanishi(strelka) kengaygan qizilo'ngachda suyuqlik borligini bildiradi.



A-rasm.

B-rasm.

83 - rasm. Kengaygan qizilo'ngach. Gastroezofageal „sigmasimon“ ichak ko'rinishidu kengaygan qizilo'ngach.

84-rasm. Birikmadan yuqori sohadá qizilo'ngach Konusimmon toraygan („qush tumshagi“ simptomasi).

Differentsial tashxis: 1) kardioezofageal o'sma – assimmetrik chegarasi notejis torayish axalaziyadaka keskin emas, oshqozon gaz pufagi deformatsiyalashgan, uning fonida o'sma soyasi ko'rindi, burmalar buzilgan. 2) reflyuks-ezofagit. Axalaziya rak kasalligi ehtimolini oshiradi (10% gacha), yorilish ketishi mumkin.


Reflyuks-ezofagit. 20% gastroezofageal reflyukslarda rivojlansadi. Qizilo'ngachni proksimal 1/3 yoki ½ qismi shikastlanadi. Tashxisda reflyuks tasdiqlanadi va boshqa belgilari aniqlanadi. O'tkir bosqichda burmalar shishi, yara(lar), eroziyalar, sekretsiya oshishi va funktsional buzilishlar (spazm, aperistaltika) kuzatiladi. Surunkali bosqichda qizilo'ngach chandiqlanish tufayli qisqaradi, toriyadi – chegarasi tekis simmetrik axalaziyaga nisbatan yuqoriroy joylashgan torayish, axalaziyadaka keskin emas, burmalar saqlangan (rakdan farqi). Asoratlar – stenoz, qizilo'ngachi diafragma teshigi churrasi (qizilo'ngach qisqarishi tufayli), barret qizilo'ngachi (malignizatsiya xavfi 10% oshadi), aspiratsion pnevmoniya. Boshqa ezofagit turлari: kuyishdan keyin, kron kasalligi, infektsiya, intubatsiyadan so'ng, radiatsion terapiya.



85-rasm. Chapda - gastroezofageal birlashma yuqori sohasidagi striktura va proksimal diliyatsiya.
O'ngda - Psevdo membrana, shilliq qavat yarasi(strelka),nodulyarligi va strukturası.



87



86-rasm. Chapda-sirpanuvchi qizilo'ngach churrasи va ko'plab qizilo'ngach yaralari(strelka)
O'ngda- qizilo'ngach shilliq qavati distal qismi modulyarligi




87-rasm. Gastroezofageal refluyuks kasalligi tufali yuzaga kelgan struktura(bos strelka) va eroziyular(strelka).


Qizilo'ngach raki. Oshqozon-ichak raklarini 5-10% tashkil qiladi. Erkaklarda 4 baravar ko'proq uchraydi. Quyidagi kasallik va holatlar rak kelib chiqish ehtimolini oshiradilar: 1)axalaziya, 2)barret qizilo'ngachi, 3)tarmaki 4)asbestoz 5)kimyoiy kuyish 6)alkogol 7)radiatsiya. Gistologik turlari – squamous cell carcinoma (50-70-95%), adenokarsinoma (30-50%) – geterotopik oshqozon epitelyisidan kelib chiqadi (70% barret qizilo'ngachidan), gastroezofageal sohada joylashadi. Rak ko'proq o'rta va pastki 1/3 qismida joylashadi. Rentgenologik turlari – polipoid, yarali, infiltrativ va varikoid (yuzaki). Belgilari – 1)burmalar buzilishi (erta belgisi) 2)to'lish defekti 3)asimmetrik chetlari notejis torayish 4)ja'zo deformatsiyasi 5)lokal peristaltika buzilishi 6)traxeozofageal fistula aspiratsion pnevmoniya bilan, 7) orqa ko'ks oraligida soya 8)traxeya deformatsiyasi va siljishi 9)oshqozon gaz pufagi deformatsiyasi va kichrayishi 10)

88

ko'ks oralig'i kengayishi. Qizilo'ngachda seroz qavati yo'qligi tufayli rakni atrof to'qimalarga turqlishi yengillashadi.



88-rasm. Qizilo'ngach zararlanishi – sxematik.




Graphic shows esophageal polypoid mass with irregular surface that indicates the esophageal wall and narrows the lumen.




Endoscopy shows polypoid mass in distal esophagus with irregular surface and lateral narrowing. Synchronous esophageal carcinoma.

89-rasm. Qizilo'ngach raki.



90-rasm.(chapda) qizilo'ngachni katta zambarug'simon polipoid e'smasi.
(o'ngda) qizilo'ngach shilliq qavatini uzilishi bilan namoyon bo'lgan striktura .



91-rasm. Qizilo'ngachni o'rta qismi polypoid kartsinomasi.




92-rasm. Katta hajmdagi qizilo'ngach devorini qalinlashishi bilan kechgan
kartsinoma.o'ng o'pka hazal qismiga tarqalishi bilan.

Qizilo'ngach divertikuli. Divertikul deb bo'sh a'zo devori lokal bo'ttishi ataladi. Hamma bo'sh u'zoda uchrashi mumkin.


Qizilo'ngachda turlari –

- 1) Pulsion - devori sustligi va ovqat bosimidan kelib chiqadi, yumaloq shakilda, ichida ovqat (bariy) ushlanib qoladi, qizilo'ngach bo'shlig'i bilan bo'yin orqali bog'langun. Ko'pincha soxta bo'ladilar – faqut shilliq qavati bo'rtadi. Joylashishi bo'yicha tsenker divertikuli (bo'yin, faringoezofageal), aortobronzial (aorta ravog'i va chap asosiy bronx o'rtassida), epifrenal (kam uchraydi, ko'pincha qizilo'ngach diafragma teshigi churrasi bilan).
- 2) Traktsion – tashqaridan adgeziv jarayon tufayli qizilo'ngach devori tortilib qoladi, uch burchak shakilda bo'ladi, bariy ushlanib qolmaydi. Doim chinakam bo'ladilar – hamma devor qatlamlari bo'rtadi, Joylashishi bo'yicha ko'pincha bu bifurkatsion (yallig'langan limfotugunlar qizilo'ngach devorini tortadi).

Divertikullar asorati – divertikulit, qizilo'ngach siqlishi, perforatsiya.



93-rasm. Qizilo'ngach divertikullari.



Flip PDF Professional

<http://www.flipbuilder.com>



Graphic shows a pouch-like herniation through Killian's dehiscence in the cricopharyngeal muscle.

94-rasm. Killian – Jeymson divertikuli.



Lateral view of larynx shows large pouch (arrow) arising from the posterior pharyngoesophageal junction.



95-rasm. Chap - qizilo'ngachni c5-e6 sohasidagi kichik tsenker divertikuli. O'ng - qizilo'ngach orqa devorini siljib , kompressiyasiga sabab bo'lgan katta divertikul.

Qizilo'ngach diafragma teshigi churrası. 25% xolatda divertikulez, 25% holatda reflyuks-ezofagit, 20% qizilo'ngach yarasi va 18% o't qopı toshlar bilan birga uchraydi. Turlari

- 1) Aksial, 99% churralarni tusbekil qiladi, sirpanuvchan bo'ladi va horizontal holatda yaxshiroq aniqlanadi. Ezofagogastral o'tish qismi ko'krak qafasida (2 sm diafragmadan yuqori), churra esa qizilo'ngach uzun o'qi bo'yicha joylashadilar. Keksalarda ko'proq uchraydi. Belgilari – 1)epifrenal bo'tish

(oshqozonni bir qismi ko'krak kafasi ichida), 2) peristaltika churra sohasida yo'qligi, 3)oshqozon burmaluri diafragma usti ko'rimishi, +)gastroezofageal reflyuks.

- 2) Paraanskial (paraezofageal) churralar. Kam uchraydi, qizilo'ngachni yon turafida joylashadilar. Oshqozon kardial qismi, ezofagogastral o'tish qismi diafragma ostida. Ko'pincha churra fiksatsiyalashgan. Oshqozon gaz pufagi qismi yurak fonida ko'rimishi mumkin. Ko'krak qafasi fonida gorizontal suyuqlik darajasi. Bu churralarni epifrenal divertikuldan ajratish kerak (bunda burmalar, oshqozon va uning gaz pufagi shakliga e'tibor beriladi). Oshqozon va gaz pufagi deformatsiyalashgan.

Qizilo'ngach venalari varikoz kengayishi.

Ikki xili bo'ladi – 1) portal venadan → v.azygos → yukori kavak venaga (bu varikozi qizilo'ngachni pastki yarimida joylashadi) 2) yukori kavak vena → v.azygos → pastki kavak yoki portal venaga (qizilo'ngachni yuqori 1/3 qismida joylashadilar).

Birinchi tur varikozi sabbabli – jigar tsirrozi, taloq venasi trombozi, jigar venalari obstruksiysi, pastki kavak vena obstruksiysi.

Ikkinchi tur varikozi sabbabli – yuqori kavak vena obstruksiysi atrof to'qimalaridagi o'sma (o'pka raki, limfoma, buqoq, timoma) yoki mediastinal fibroz goniukelib chiqadi.

Belgilari – ko'p sonli yumaloq va qurt shaklida – «qurt egan» to'lish defektleri, shishgan «sinusoid» burmalar.

Asorat – qon ketish 3 yil ichida 30% bermirlarda kuzatiladi.

Qizilo'ngach kuyishi. Ko'proq qizilo'ngach o'rta yoki pastki qismida joylashadi. Bosqichlari 1) 3 kungacha shilliq qavat shishi, qizilo'ngach atonik, kengaygan, uchlanchi peristaltika, spazm. 2) 3-5 kunlarda yara hosil bo'ladi 3) 10 kundan keyin chandiq bosil bo'ladi va chandiqli stenoz rivojlanadi. Chandiqli stenoz (O'smadan farqi) ko'pincha uzun masofada, simmetrik chegaralari tekis bo'ladi, burmalar ham saqlangan. Asoratlari – perforatsiya, malignizatsiya va chandiqli stenoz.

Oshqozon kasalliliklari.

Oshqozon raki. Uchrashi bo'yicha yo'g'on ichak va oshqozon osti bezi rakidan so'ng 3 urinda turadi. Kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin holatlar. H.pylori gastrit, atrofik gastrit, adenomatoz polip, oshqozondagi operatsiyalar, menetrie kasalligi. Gistologik turi adenokartsinoma (95%). Joylashishi asosan oshqozonni distal 1/3 qismida va 1/3 kardiya, 60% kichik egrilikda, 10% katta egrilikda. Turlari polipoid, yarali (70%), infiltrativ (skirr), yuzaki tarqaluvchi. Belgilari –

Flip PDF Professional
http://www.flipbuilder.com

93


- 1) burmalar buzilishi (erta belgisi)
- 2) chetlari notejis to'lish defekti
- 3) torayish
- 4) a'zo deformatsiyasi va hajmi kichrayishi
- 5) lokal peristaltika yo'qligi
- 6) yara



96-rasm. O'shqozon raki.



Grafik shows large mass with broad base and irregular surface.



Upper GI series shows large mass (carcoma) with a broad base and an irregular nodular surface.

97-rasm. Oshqozon raki.

94



98-rasm. Chap - o'shib boruvchi infiltrativ karsinoma.
O'ng - skirroz karsinoma devorni qalinlashishi bilan.

Polipler. Eng ko'p uchraydigan oshqozon xuvfsiz o'smasi.

Turlari:

1) Hyperplastik (yallig'lanish) poliplar - 75-90% tashkil qiladi.

Belgilari - malignizatsiya bermaydilar, ko'proq fundal va tana qismida uchraydilar, ko'p sonli, oyoqchali va shlyapali, diametri < 2sm, chegaralari tekis, oshqozon konturini o'zgartirmaydilar, deyarli o'smaydilar. Rentgenogrammada to'lish defektini beradilar.

2) Adenomatoz (neoplastik) (10-20%) – malignizatsiya xavfi 80% gacha polip o'chamiga bog'lik, ko'proq keksa yoshda va erkaklarda (x2) uchraydi, ko'proq antrumda uchraydi, ko'rinishi qo'ziqorinsimon, ko'pincha yagona, diametri > 2 sm, konturfari notejis bo'lishi mumkin.



99-rasm. Oshqozon anstral qismi polipini(adenoma) o'n ikki harsmoqli ichak pleyozcha qismiga protapsi.

Oshqozon yarasi, 95% bolatda xavfsiz. Ko'proq keksa yoshda uchraydi, erkaklar:ayollar=1:1. 10% ko'p sonli, ayniqsa aspirin qabul qiluvchi beyningizde. Joylashishi: kichik egrilik, tana va antrum o'rtaasida. **antrum** va subkardiya. 2 sm dan kichik. Belgilari – bevosita va bilvosita. Bevosita – 1) tokcha simptomi (konturagi yoki relyefdagisi tokcha), relyefdagisi tokchani ha'zida bariy dog'i yoki bariy deposi deb ataladi 2)tokcha atrofidagi yallig'lanish infiltrati (vali). Bilvosita – tonus oshishi, peristaltika oshishi, lokal spazm (ko'rsatkich barmoq simptom), gipersekretsiya, atrof relyef o'zgarishi (shishi yoki burmsalar konvergentsiyasi), lokal og'rik yara sohasida. Burmalar konvergentsiyasi surunkali yara belgisi va chandiqlanish tufayli kelib chiqadi. Yara asosatlari – qon ketish, perforatsiya, penetratsiya, chandiqli stenoz va malignizatsiya. Penetratsiyalangan yara belgilari – chuqur, divertikul simon, uch qavatli (havo, shilliq, bariy), va fiksatsiyalashgan. Chandiqli stenoz oshqozonda – shilliq qurt (xaltacha) yoki qum-soati shaklida uchraydi, birinchisi ko'proq. Perforatsiyada asosiy usul oddiy rentgenografiya diafragma ostida gaz yig'ilishi ko'rsatadi, gaz kam bo'lsa ko'rsatmasligi mumkin, bu holunda KT qilinishi tavsiya qilinadi. Bariy bilan tekshiruv perforatsiyada tavsiya etilmaydi.

95



Graphic shows ulcer crater and numerous esophageal varices; mostly in antrum along the "Wolff's" of hypertrophied folds.

96



Upper GI series shows contracted antrum with thickened rugae and numerous varicose veins (arrowed).

101-rasm. Oshqozon yarasi.

Xavfli yara belgilarli. Oshqozonni turli qismida joylashishi mumkin. Katta egrilik va fundal qismidagi yaralar ko'proq xavfli bo'ladi. Rentgenoskopiyada tokchanli konturya chiqarganda, tokcha oshqozon ichida joylashadi, tokcha chetlari notejis, chetlari bezilg'an, diametri chuqurligidan katta bo'ladi (yassi yaralar), to'lish defekti, devor rigidligi.




Graphic shows gastric ulcer with smooth gastric folds radiating to the edge of the ulcer crater. Also note infolding of the gastric wall "pointing" toward the ulcer.



Upper GI series shows barium pool in ulcer crater (arrowed), with smooth folds radiating to the edge of the ulcer.

102-rasm. Oshqozon yarasi.

Leyomioma. Poliplardan so'ng oshqozon xavfsiz o'smalaridan 2 o'rinda turadi. 2/3 leyomiomalar oshqozonda uchraydi. Belgilari – o'rta o'lchamlari 5 sm atrofida, yumaloq shakl va aniq tekis chegaralari, submukoz yoki subseroz o'sma, to'lish defekti, oshqozon ichki devori bilan to'g'ri burchuk hosil qiladi, 50% yaralanadi, o'sishi sekin. Asoratlari. 1) qon ketish, obstruktsiya, infektsiya tushishi, perforatsiya, malignizatsiya.



Graphic shows pedunculated polyp in stomach lumen, passing through pylorus with peristalsis.



Upper GI series shows a polypoid lesion in the stomach lumen that passes through the pylorus during peristalsis.

103-rasm. Oshqozon polopi.

O'n ikki harmoqli ichak yaralari. Oshqozon yaralari nisbatan 2/3 baravar ko'proq uchrudilar, ko'proq erkaklarda (3:1). Lokalizatsiya – 95% piyozchadu, o'lchami 1 sm dan kichik, Nisha simptomı, yallig'lanish vali, burmalar kovergentsiyasi, oldi va orqa devorida joylashsa – «seluyushiesya» (o'pishtgan) yaralar deb ataladi. Yara 85% holatda piyozchu deformatsiyasiga olib keladi – kichrayish, qum soati shakli, cho'ntaklari divertikul simon kengayishi, Trilistnik simptomi. Asoratlari oshqozon yarasidek lekin malignizatsiya yo'q. Oshqozon va 12 barmokli ichak yarusidagi stenozlar turli: kompensatsiyalashgan (oshqozondan evakuatsiya saqlangan), subkompensatsiyalashgan (bariy 1 sutka ichida oshqozondan chiqib ketadi), va dekompenstasiyalashgan (1 sutkadan keyin oshqozonda bariy kuzatiladi).




Flip PDF Professional

<http://www.flipbuilder.com>



Upper GI series shows ulcer crater (arrow) and deformed bulb, excluding a pseudodiverticulum (curved arrow).

104-rasm. 12 barmokli ichak yarasasi va pseudodivertikuli.



105-rasm. Chap - duodenal yara(strelka) va pseudodivertikul (bekilgan strelka ko'rnatkichi).
O'ng - gigant duodenal yara.



Kron kasalligi=regional enterit=terminal ileit.

Oshqozon ichaklarni turli qismida uchrashi mumkin, shu jumladan qizilo'ngachda. Tarqalishi bo'yicha – och va yonbosh ichaklar (80%), yo'g'on ichak (22-55%).

duodenum (4-10%), oshqozon va qizilo'ngachda 1-3%. O'zgarishlar: 1) o'tkir bosqichda – aftoz (yuzaki) yarmlar diametri 5 mm gacha, shilliq qavat shishgan, relyef yo'qolishi mumkin, obulujnaya mostovoyu» simptomni (toshdan terilgan yo'l), stenoz (shish va spazm tufayli), devor rigidligi, ichaklar bir biriga yopishishi (separatsiya) va siljishi 2) surunkali bosqichda – chandiqli stenoz (shnur simptomni). Asoratlari: fistula va abstsesslar (40%gacha), stenoz, perforatsiya, toksik megakolon, gidronefroz, adenokartsinoma ehtimoli x4-20 baravur oshishi.

Ichak tutilishi. Turlari ingichka ichakli (80%) va yo'g'on ichakli (20%), mexanik (ovqat o'tishiga to'sqinlik) va dinamik (ichaklar paralichi). Mexanik ichak tutilishni sababları: 1) tashqaridan - adgeziv peritonit, churra, strangulyatsion (ichaklar burilib qolishi), hajmli tuzilmalar 2)ichkaridan – yot tana, bezoar, o't toshi, invaginatsiya, 3) devoridan – o'smalar, yallig'lanish jarayoni. Mexanik ichak tutilishda – peristaltika saqlanadi, dinamikada tasvir o'zgaradi, stenozagacha ichaklar kengayan, distal ichaklar esa torayganligi aniqlanadi. Dinamik ichak tutilishi sababları: operatsiyadan so'ng (4 kundan keyin o'tib ketadi), visteral og'riqlar (tosh, o'sma, travma va x.k.), Qorin bo'shligi' ichki yallig'lanish jarayoni (xoletsistik, appenditsit va x.k.), ichaklar ishemiyat, antioxiderler, preparatlar, neyromushak va sistemali kasalliklari, ko'krak qafasi va rektosigmoid kasalliklari. Dinamik ichak tutilishida peristaltika kurtilmadi. Jumrukda tasvir o'zgarmaydi, stenoz joyi aniqlanmaydi, ichaklar diffuz kengayan. <http://www.flipbuilder.com>

Ichak tutilishini asosiy rentgenologik belgisi kloyber kosulari – kengayan ichaklardagi suyuqlik va gaz sutxları. Ular tutilishdan keyin 3-5 soatdan keyin paydo bo'ladiilar. Tashxis uchun ular 3 dan ko'p va diametri 3 sm katta bo'lishi kerak. Ingichka ichakdagagi kloyber kosulari Qorining o'rta va pastki qismida joylashadilar, o'lchamlari nisbatan kichik va diametri balandligiga nisbatan katta bo'ladi. Yo'g'on ichakdagagi kosalar Qorin periferiyasida ko'proq joylashadilar, o'lchamlari nisbatan katta bo'ladi, diametri balandlikka mos yoki katta bo'ladi.

Ichak tutilishida oddiy rentgenografiyu, ultrasonografiyu, KT va irrigoskopiyasi o'tkaziladilar. Bariy ichirilib tekishirish o'tkir ichak tutilishda samara bermaydi, surunkalida – bariy passuji o'rganilishi mumkin. Passaj – bariyni oshqozon ichak traktidan o'tishi.

Yo'g'on ichak raki. Oshqozon ichak traktini eng ko'p uchraydigan o'smasi. Erkaklarda o'pka va prostatada bezi rakidan, ayollarda o'pka va ko'krak bezi rakidan keyin 3 o'rinda turadi. Xavf omillari: 1) adenomatoz poliplar - 93% holanda rak shu poliplardan kelib chiqadi. 2) yaqin qarindoshlurda o'sma bo'lgani xavfni 3-5 baravar oshiradi 3) bemorda boshqa raklar bo'lgani (tuxumdon, endometriy yoki ko'krak bezi) 4) yarali kolit va kron kasalligi 5) nur terapiyasi va boshqalar. Joylashishi: ko'proq chap tarafda (ayniqsa sigma-simon va to'g'ri ichakda), lekin

yosh o'tgan sari o'ng tarafga «siljiydi». Usullar ahamiyati 1)endoskopiya ko'r ichakni 10-36% bemorlarda ko'rolmaydi 2)irrigoskopiya polip 1 sm katta bo'lsa 94% gacha, 1 sm kichik bo'lsa 72% gacha holatlarda aniqlaydi. Turlari: 1) polipoid (qon ketish, invaginatsiya), 2) annulyar yarali 3) egur-simon = 1+2, 4) skir. Rentgen-belgilari: to'lish defekti, relyef buzilishi, stenoz, peristaltika yo'qligi, yara. Asoratlari: obstruktsiya, perforatsiya, abstsess, fistula, invaginatsiya.

Yarali kolit. ko'p uchraydigan idiopatik yallig'lanish kasalligi.

Uchrayishi 20-40, 60-70 yoshda. Erkak:ayol = 1:1. Klinik – remissiya va o'tkiranish, qonli diarreya, elektrolitlar kamayishi, harorat va sistemali zaxarlanish, og'rik. Ekstrakolonik o'zgarishlar: terida toshmalar, xolangit, geputit, jigar yog'li distrofiyasi, artrit va spondilit, tromboz. Joylashishi: rektosigmoid (95%) va pastki tushuvchi ichak.

Bariy bilan rentgenoskopiya.

O'tkir bosqichda: **simmetrik torayish** (stenoz va shilliq qavat shishi tufayli), shilliq qavatni shishi, mayda granulyatsiyalar, **yuzaki** yaralar, sekretsiya oshishi va shu tufayli konturlar noaniq ko'rinishi mumkin.

O'tkir osti bosqichda: gastralalar deformatsiyasi, yallig'lanish poliplari, dag'al granulyatsiyalar.

Qo'shikli: ichak qisqarishi, gastralalar deformatsiyasi va yo'qolishi, truba simptomni (kengaymайдиган, gastritsiyasi yo'q, shilliq qavati yaxshi ko'rinnagan ichak), oshgan sekretsiya, yallig'lanish poliplari, peristaltika yo'qolishi, granulyatsiyalar, ileit.

Kr – devori kallinlashgan lekin < 10 mm.

Asoratlari: toksik megakolon + perforatsiya (10%), adenokartsinoma (5%), strikturalar (10%), perforatsiya.

Kron va yarali kolit farqlari:

Parametrik	Kron kasalligi	Yarali kolit
Uchrashi	Ileum va yo'g'on ichak	Faqit yo'g'on ichak
Turqalishi	Lokal	Turqalgan
Joylashishi	O'ng tomonda	Chap tomonda
Yaralar	Chuquq	Yuzaki
Qisqarishi	Yo'q	Bor
Simmetrik	Yo'q	Xa
Kartsinoma kelib chiqishi	Kamroq	Ko'proq
ehtimoli		
Megakolon	Kam	Ko'proq
Fistula	Xa	Yo'q

Tuzuvchilar: B.R. Axmedov, G.B.Xaydarova

VI BOB JIGAR VA O'T YO'LLARI NUR TASHXISI USULLARI

USULLAR

Sonografiya. Jigar va o't qopini tekshirishda birlamchi usul. Sonografiya ahamiyati: 1) jigar anatomiysi (joylashi, shakli, o'chamlari, konturlari), 2) jigar strukturasiini (exogenligi pasaygan – shish, oshgan – sklerotik o'zgarishlar, solid va kistoz tuzilmalar va x.k.), parenximasini normada mayda donachali bo'ladi. 3) jigar parenximasida portal (devorli) va jigar venalari (deversiz) gipoexogen bo'lib ko'rindi 4) jigar darvozasida portal va jigar venalari, jigar arteriyasi, xoledox ko'rindi. 5) jigar ichida arteriyalar va o't yo'llari normada ko'rinnmaydi 6) qon tomirlur va oqimi V va Doppler rejimlarda o'rganish mumkin 7) o't qopni turli o'zgarishlari va evakuatsiya funktsiyasi 8) interventions muolajalar nazorat qilish (biopsiya, o'smalarga mahalliy dori yuborish, teri-orqali kateterizatsiya, drenaj va x.k.).

Pnevmatoz, yog'li distrofiya, bemor semizligi jigar tekshiruvida qiyinchilik tug'diradilar. Tayyorlarlik – ochlik (o't qopi ko'rinishi uchun).

Diffuz kasallikkarda (ayniga o'tkir) ahamiyati kam (chunki funktsiyasini aniqlamaydi), o'choqlillarda (o'sma, abstsess, tosh va kistalar) katta: <http://www.flipbuilder.com>



106-rasm. A-Exogrammada jigar ong belagining buylama kesmasi;

B-Exogrammada jigar chap belagining buylama kesmasi

KT.


Kompyuter tomografiya jigar va atrof to'qimalar tekshirishda eng yaxshi usul hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda qo'llanilsadi sonografiya ma'lumotini aniqlash uchun. Birdaniga boshqa qo'shni a'zolar va to'qimalar ko'rindi. Asosan o'smalarda, murakkab kista, abstsesslarda qo'llaniladi. Kontrast KT bu o'sma, kistalarini va abstsess differentials tashxisiga yordam beradi. Jigar normada zichligi katta +50+70 N. Jigar parenximasini fonida venalar ko'rindi ular zichligi +30+50. KT ahamiyati sonografiyaga o'xshash, lekin anatomik ma'lumotni aniqlaroq beradi, gaz, yog'li distrofiya tekshiruvga to'siq bo'lmaydi. Diffuz kasallikkarda ahamiyati ancha kamroq.


MRT.

Kompyuter tomografiyadan jigar tekshirishda umuman aytganda qo'llaniladi lekin ko'p emas. Kamchiliklari: nafas bilan sinxronizatsiya yo'q, fazoviy farqlash kichikroq (tasvir unchali timq emas), kaltsinatlar (toshlar) yaxshi ko'rinnmaydi, qimmat. Ahamiyati KTga o'xshash (shu jumladan kontrast MRT). Tekshiruvga nafas, qon oqimi va peristaltika harakati xalakki beradi. MRT KTdan ustun bo'lishi mumkin quyidagi holatlarda: 1) tuzilmalarini a'zolarga nisbatli aniqlashda (3 proektsiyada tasvir olinib) 2) qon-tomir o'smalari (gemungiomma) va anomaliyalari + noinvaqiz MR-angiografiya 3) rentgen kontrast moddaga allergik hemorlar.

Rentgen kontrast tekshiruvlar. Asosan o't yo'llari + o't qopni tekshiriladi, lekin jigar o'sma va kistalarida ham qo'llash mumkin (ularning o't yo'liga nisbatli ko'rindi).



107-rasm. Jigar o't yo'llarini kengayishi
a-strelna stenoz(o'sma)korsatilgan



108-rasm. Oddiy rentgenografiynda faqat oxaklashgan o'zgarishlar ko'rindagi a-o't qopni toshlari b-jigar oxaklashgan mts

1. Xoletsistografiya.

Bugungi kunda deyarli o'tkazilmaydi. O'tkazilish metodikasi: 1) ouldiy rentgen tusvir (kulitsinatlar ko'rish uchun) 2) kechki ovqatdan so'ng ismoxo rentgen kontраст modda tabletkasini ichadi va ertasi kun tekshiruvgacha hech narsa yeraq kelishi 3) ertalab tekshiruvgacha 2-3 saat qolganda yana 1 tabletka rentgen-kontраст modda qabul qilishi mumkin 4) o't qopiq rentgenografiyasi qilinadi. O't ~~korishga~~ quyidagi omillarga bog'lik 1)kontrast modda ichakde so'risht 2) modda jigaarda yig'ilishi va o't bilan chiqish 3) jigar o't yo'llarida to'shi bo'masligi kerak 4) o't qopiq kontsentratsiyalash funksiyasi saqlangan bo'lishi kerak.

Demak 1-4 omillar buzilganda xolestistografiya chiqmaysdi va buni manifxi xolestistografiya deb ataladi (bemor ertalab keldi, o't qopи esa yo'sq). Xolestistografiya ahumiysi: 1) fiziologik tekshiruv va ingichka ichak, jigar, o't qopи (kontsentrasiya) funktsiyalari to'g'risida umumiy ma'lumot beradi (funktsiya saqlangan/saqlanmagan) 2) yangona usul o't qopи kontsentrasiya funktsiyasi aniqlaydi (agar buzilsa o't qopи yaxshi ko'rinnaydi), evakuatsiyani ham o'rganish mumkin. 3) o't qopи anatomiysi va ichidagi o'sma, negativ toshlar va x.k. to'g'risida ma'lumot beradi. 4) o't yo'llari holati to'g'risida umumiy ma'lumot beradi (agar o't qopи yaxshi ko'rinsa - o't yo'llari ochiq, ko'rinnmasa - manifxi xolestistografiyauning sabablaridan biri o't yo'llari obstruktsivasi).

2. Xolegrafiya. Deyarli o'tkazilmaydi. Fiziologik usul. Venaga hepatotrop rentgen-kontrast modda yuboriladi. 20 min keyin o't yo'llari ko'rinadi. Ko'rinish uchun jigar funktsiyasi, o't yo'llari o'tkazuvchanligi, o't qop'i kontsentratsiya funktsiyasi saqlangan bo'lishi kerak.

Xoletsistografiya va xoleografiya kamchiliklari – jigar va o't qop funksiyasiga bog'lik usullar, funksiyalar buzilganda o't yo'llari ko'rinnmaydi. Bundan tashkari kontrast o't bilan aralashgan bo'ladi va toza kontrastga nisbatan sstroq ko'rinnadi. Asoratlar ko'p.

2. Xolangiografik usullar. Bu usullar hozirgi kunda keng qo'llaniladilar. Bunda kontrast bevosita o't yo'llariga yuboriladi. Afzalligi: 1) jigar va o't qopи funktsiyasiga bog'lik emas 2) kontrast o't bilan aralashmaydi va o't yo'llari aniq ko'rinishi 3) transkateeter operatsiyalar (drenaj, dilatatsiya, plastika, toshlari olib tashlash va x.k.). Kontrast yuborish yo'llari – 1)endoskopik retrograd pankreatoxolangiografiya (zamona raviy va mini invaziv usul, duodenoskop - fatterov so'rgichi orqali kontrast xoledoxga yuboriladi) 2)teri orqali 3)intraoperatsion 4) postoperatsion (drenaj orqali).

Radijonuklid usql


Jigar va o't qopı (evakuatsiya) funktsiyalari o'rganiladi va shuning uchun jigarni surunkali diffuz kasalliklarida ahamiyatlari. O'choqli kasalliklarda ahamiyati, spetsifikligi ancha kam (o'sma kistalar asosan sovuq o'choq sindromini beradilar). Stsintigrafiyanı statik va dinamik usullari bor. Statik tasvirda jigar, o't qopı, taloq, ichaklar ko'rinishi mumkin. Dinamik tasvir (gepatografiya) jigar, o't qopida radioaktiv modda yig'ilishi/chiqishi vaqt mobaynida grafik shaklda o'rganiladi. Statik va dinamik tasvirlar birdaniga bitta apparatda yoziladilar. Radionuklid usulini jigar uchun 2 uslubi bor – 1) hepatobilistsintigrafiya (radioaktiv modda hepatotsitlarda yig'iladi) va tasvirda jigar, o't qopı va ingichka ichak ko'rindi, bevosita o't hosil qiliň va chiqarish funktsiyasi o'rganiladi, o't qopı evakuatsiya funktsiyasini o'rganish mumkin. 2) hepatotsintigrifiyu (radioaktiv modda Kupfer hujayralarida yig'iladi) tasvirda normada faqat jigar ko'rindi, patologiyada + taloq, bevosita jigarni himoya/barer funktsiyasi o'rganiladi. Taloq normada ko'rsataydi chunki unda Kupfer hujayralar miqdori jigarga nisbatan 15 baravar kam, patologiyada bu nisbat taloq tomonga siljishi va taloq ko'rinishi mumkin. Ikkala uslub ham UMUMIY JIGAR FUNKTSIYASI to'g'risida hulosha qildilur. Stsintigrammalarda patologiya mezonulari.

- 1) Jigurda yig'ilish vaqtı (normada 15 min, surunkali diffuz kasallikkarda > 20-25 min).
 - 2) Jigurda yig'ilish rasmı – normada bir tekis (o'rtada ko'proq), patologiyada orol-simon.
 - 3) Gepatotsintagrafiyada taloq ko'rinishi
 - 4) Jigarning o'lchami, shakli, joylashishi, konturlari o'zgarishi (yaxshi ko'rinnaydi)

Anxietografix

Avval jigar tuzilmalari differentials tashixisi uchun ko'llanilar edi, KT va MRT keng ko'llanishidan so'ng bu sohadagi o'z ahamiyatini yo'qtdi. Hozirgi kunda ko'proq mini-invaziv endovaskulyar davolash uslublari keng rivoj topmoqda. Jigar angiografiyasi Seldinger uslubi bo'yicha kateter truncus celiacus va suniga mesenterica superior ga o'tkaziladi (jigar ikkalasidan oziganishi mumkin). Fazalari: arterial, parenximatoz, venoz va portogramma. Portal vena kontrastlash usullari – 1) angiografiyaning oxirgi bosqichi 2)teri va taloq pulpasi orqali (splenoportografiya) 3)bevosita teri orqali portal venaga. Ko'rsatmalar: 1)qon tomir

anomaliylari 2)o'sma va kistalar 3)endovaskulyar muolajalar 4)diffuz sklerotik kasalliklar. 5)ko'p qon ketishlarda. Endovaskulyar muolajalar turi: 1)embolizatsiya (qon ketish, o'smalarini, varikozlardan, taloq arteriyasi), 2)lokal ximioterapiya (xavfli o'smalar), 3)ballon dilatatsiya 4)trombolizis



109-rasm. Angiografiya. Jigar arteriyasi aystenoz



Gepatitdagi o'zgarishlar jigarda qon dimlanishidagi o'zgarishlarga o'xshaydi, lekin dimlanishda jigar va pastki kavak vena kengaygan bo'ladi. Sonografiyadan boshqa radiologik tekshiruvlar o'tkir hepatita o'tkazilmaydi.



110-rasm. Jigar o'ng bo'lagining ko'ndalang kesmasi, parinxema exogenligini pasayishi va qon tomir devorin o'riga xos assusiyati (yuldezi osamon)

Surunkali hepatit (>6 oy). Sonografiyanı informativligi ko'proq. Ko'rsatadi – jigar kattalashishi, exogenligi nogomogen oshishi, konturlari notejisligi, qirralari yumaloqlashishi, mayda portal qon tomirlari yaxshi ko'rinnmasligi. Jigar parenximasining ultratovush o'tkazish hususiyati saqlanib qoladi (yog'li distrofyada buziladi). Funktsional usullardan – laborator va radionuklid (kam) qollanilishi mumkin. Asorati – tsitroz (hepatit B – 10%, hepatit S – 20-50%).



Flip PDF Professional
by maverick

Jigar va o't yo'llari haqida normal raqamlar.
Vertikal o'lchami medioclavicularis chizig'i bo'yicha 13-15 sm. o'lchami uzumasi 7-10 sm, eni 4 sm gacha, o't qopni devori 3 mm, xoledox 7 mm, portal vena 14 mm, taloq venasi 7 mm, hepatotsitlar/Kupfer hujayrlari=85% : 15%, jigarga 75% qonni portal vena va 25% jigar arteriyasi beradi, jigarda 8 segment bor – 1 – kvadrat bo'lak, 2-3-4 – chap bo'lak, 5-8 – o'ng bo'lak. Portal venada qon oqimi tezligi > 11 mm/sek, bosim = 11 mm Hg. Kupfer hujayrlar hajmi jigar / taloqda = 15 : 1.

JIGAR KASALLIKLARI.

Parenximatoz kasalliklar ko'pincha 2 guruhga bo'linadi – diffuz va o'choqli. Diffuz kasalliklar – bu yallig'anish, distrofik va sklerotik. O'choqli kasalliklar (bu o'pkadagi o'choq emas) – kistalar, asbtsesslar va o'smalar. Diffuz kasallikkarda bizni Ichi o'rinda a'zo funktsiyasi qiziqtiradi, o'choqlillarda – anatomik o'zgarishlar. Hamma jigar tekshiruvlari sonografiyadan boshlanadi – arzon, zararsiz va ko'p holatlarda informativ va yetarli. O'zgarishlarga qarab kerak bo'lsa boshqa usullar qollanilishi mumkin.

O'tkir hepatit. Sonografiya informativligi kam, bu kasallikda klinik va laborator tekshiruvlari asosiy. Sonografiya maqsadi hepatitni aniqlash emas, balki boshqa patologiya yo'qligini ko'rsatishdir. 50% bemorlarda o'zgarishlar ko'rindi – hepatomegaliya, jigar qirralari yumaloqlashishi, exogenligi pasayishi, boylamlar, portal vena va o't yo'llari devori exogenligi nisbatan oshishi. O't qopni devori qalinlashishi va o'tning xiraligi va cho'kmalari kuzatilishi mumkin.

111-rasm. Parinxema exogenligini bizar oshigan va notejiga.

Sirroz. O'zgarishlar surunkali hepatita o'xshash lekin keskinroq + portal gipertensiya belgilari. Sonografiyada – jigar kattalashishi/kichiklashishi mumkin, kvadrat va chap bo'lak (2-3 segmentlar) gipertrofysi, jigar konturi tugunlashishi (notejisligi), exogenligi nogomogen oshishi – portal venular yaxshi ko'rinnmasligi, izoexogen regeneratsiya tugunlari. Jigar kichiklashishi bu faqat tsirroza xos belgi. Exogenligi boshida yog'li distrofyia, so'ng fibrotik o'zgarishlar tufayli oshadi. Regeneratsiya tugunlari metastatik tugunlarga o'xshashi mumkin. Portal gipertensiya belgilari – portal vena kengayishi, undagi qon oqimi

sekinlashishi yoki orqaga qaytishi, splenomegaliya, astsits, porto-kaval anastomozlar kengayishi (kindik venasi).

Qon-oqimi buzilishi (Doppler).

- 1) portal venada qon oqimi sekinlashadi va orqaga oqishi mumkin.
- 2) jigar venalaridagi oqim normada 2 fazali bo'ladi, diastolada qon yurak tomon oqadi, sistolada orqaga. Agar jigar zichlashsa qon oqimi bir tomonli (1 fazali) bo'lib qoladi (orqaga oqmaydi). Astsits, semizlik, yurak yetishmovchiligidagi dopplerde o'xshash o'zgarishlar kuzatiladi.

3) jigar arteriyasida kon oqimi oshadi.

KT, MRT tsirrozdzu qilinishi mumkin lekin sonografiyaga kam ma'lumot qo'shadilar.

Angiografiya. 1) varikozer embolizatsiyasi 2) angioarxitektonika va qon oqimi o'zgarishi 3) portokaval anastomozlar.


Radionuklid tekshiruvlar. Funktsiyasi pasayishi.

Qizilo'ngach va oshqozon kontrast tekshiruvi. Varikoz venalar kengayishi.

Sirroz asoratlari: astsits (50%), portal gipertensiya, hepatoma (7-12%), xolangiokartsinoma.

O'lim sabablari: qizilo'ngach varikozlaridan qon ketishi (25%), hepatorenal sindrom (10%), bakterial peritonit (5-10%), astsits davolash asoratlari (10%).

PDF Professional



112-rasm. Jigar serosal. Jigar parenximasini notekis, zichlashgan, fibroz xisobiga, umumiy exogenligi oshgan.


Yog'li distrofiya.

Diffuz yoki o'choqli bo'lishi mumkin. TSirroz va surunkali hepatitga qaraganda jigar exogenligi keskin oshadi («yarqiragan jigar» simptomasi) va ultratovush o'tishi kamayadi – jigarning orqa strukturalari yaxshi ko'rinnaydi, jigar funksiyasi ko'pincha saqlanib qoladi. Belgilari: 1) hepatomegaliya (80%), yarqiragan buyrak, ultratovush o'tishi kamayishi, qon-tomirlar yaxshi ko'rinnaydi.

KT. Tasdiqlovchi usul – jigar parenximasini zichligi kamayadi <+30N, qon tomirlar gipertensiv, taloq zichligi jigarnikidan yuqori bo'ladi.

Radionuklid usul. Nogomogen yig'ilish (70%), taloq yoki yassi suyaklar ko'rinishi (40%).

O'choqli yog'li distrofiyani, yoki diffuz yog'li distrofiyada normal parenxima o'choqli saqlanish sohalarini boshqa o'choqli kasalliklar bilan differentsiyal tashxis o'tkazish lozim.



113-rasm. Sonografiya tekshiruvida jigarning ko'ndalang va bo'yilma insviri

O'CHOQLIKASALLIKLAR.

Jigar (oddiy) kistasi. Rivojlangan mammakatlarda uchrashi bo'yicha 2 o'rinda gemangiomidan so'ng, rivojlanmagan mammakatlarda 3 o'rinda + exinokokkdan so'ng.

Uchrashi 2-7%, ko'proq keksa ayollarda. Turlari: 1)ortirilgan (travma, yallig'lanish, parazitar kasallik, o'smadan so'ng 2) tug'ma. Ko'p sonli bo'lishi mumkin. O'lchamlari 1-20 sm.

Sonografiya va KT ko'rinishi: yumaloq, chetlari aniq tekis, devori ko'rinnmas, gipoexogen, gipotensiv (0+10N) gomogen tuzilma, +suyuklik-suyuklik gorizontall chegarasi, atrof to'qimalarida o'zgarish yo'q. Distal ultratovush kuchuyish simptomi, KT kontrast bilan – kontrast yig'maydi.

Jigar polikistozi.

Autosom dominant kasallik, ayollarda ko'proq, 50% holatlarda kistalar buyrakda ham uchrayıdi. Usullar jigarda ko'p sonli kistalarini ko'rsatadi. Gepatomegaliya+og'rik. Kistalarda qon ketishi, infektsiya tushishi mumkin.

Jigar exinokokki. 60-70% jigarda, 15-25% o'pkada va qolgani boshqa a'zolarda uchrayıdi. 20% ko'p sonli. Ortacha o'lchami 5 sm, 50 sm gacha bo'lishi mumkin. Klinik: og'rik (katta bo'lsa) ko'pincha simptomsiz, sarg'ayish, eozinofiliya, toshmalar, anafilaksiya (yorilgandan so'ng).

Turlari – 1 tip – bir katakli (unilocular) kista, 2 tip qiz kistalarini bilan heterogen kista, 3 tip – kalsiyushgan kista.

Sonografiya. Ko'rinishi turiga bog'lik. 1 tipda oddiy kistaga o'xshaydi, lekin devori 2 qavatlari bo'ladi – ichki xitin (kistaniki), tashqari fibroz qavati (jigarniki). Xitin qavati ajrab qolishi, kollapsi, sinib ichida suzib yurishi (iliya, parus simptom), kista ichida chuvalchang (qurt)-simon strukturlar (ajralgan endokista) patognomonik. 2 tipda kista heterogen va ko'rinishi bo'yicha o'sma o'xshashi mumkin. Kista periferiyasida ko'p sonli qiz kistalarini joylashadi, kista markazi giperexogen bo'ladi (o'lgan ona kistasi). 3 tipda kista qisman yoki to'liq kaltsilnishi mumkin, faqat to'lik kaltsilnishi parazitni o'lganligi haqidagi dalolat beradi. Oddiy kistadan yana bir farqi mass-effekti (atrof to'qimalarni siqib qo'yishi ko'proq bo'ladi).

KT. Zichligi +20 N gacha, devori zinch bo'lishi mumkin, kaltsinatlar yaxshi ko'rinadi. Kontrast KT da kista devori va septatsiyalar kontrast yig'ishi mumkin, lekin kontrast yig'ishi kistaga xos emas.

Asoratlari – 1) yorilishi (50-90%) – anafilaksiya+disseminatsiya, 2)infektsiyalani (5-8%), 3)transdiafragmatik o'sish 4)peritoneum bo'yicha turqalishi 5) o't yo'llari va venalar ezilishi.

Gemangiomma. Jigar xavfsiz o'smalarini 75-80% tushkil qiladi, p'resas metastazlardan so'ng 2chi o'rinda uchraydi. Ko'proq ayollarda (55). Ko'p toni va boshqa a'zolarda birdaniga uchrashi mumkin. Klinika: simptomsiz (50-70%), profuz qon ketish (5%), hepatomegaliya, homildorlik paydzi, hepatoblastom mumkin, og'rik va diskomfort. Gistologik bu ko'p qonli, sekin oqimli tuzilma, qon ko'p sonli fibroz to'siqlar bilan chegaralangan.

Joylashishi: periferal, kapsula osti o'ng bo'lakni orqa segmentlarida (6,7). Ko'p sonli 10-20%. O'lchamlari 90% holatda 4 sm kichik, kattalarini (>8 sm) gigant kavermoz gemangiomma.

Sonografiya.

- Kichik bolsa giperexogen gomogen tuzilma shakli oval chegaralari tekis, aniq tuzilma
- Katta bo'lsa (> 8 cm) - + nogomogen – nekroz, fibroz, tromboz, kulchalar + kaltsinatlar (flebolitlar). O'rtaida bo'shlig (+). Distal akustik kuchayish simptom (+).
- Sekin o'sadi 1-6 yilgacha o'lchamlari o'zgurmasligi mumkin.
- Atrof to'qina intakt

KT. Gipodensiv tuzilma, ko'proq gomogen, lekin nogomogen ham bo'lishi mumkin. KT-kontrast bilan – kech kontrastlanadi (parenxima bilan birga) va vaqt mobaynida chetidan o'rtafiga kontrastlanib keladi (kontsentrik yoki periferik kontrastlanish deyiladi). Katta gemangiomalarni o'rtafiga sust yoki umuman kontrastlanmasligi mumkin (chandiq va nekroz tufayli).

MRT. Eng spetsifik usul hisoblanadi (95%). T1 – gipo-izointensiv, T2 – keskin giperintensiv («chiroqday» yarqinaydi). Gradient-exo tasvirlarda gipointensiv (qon tufayli).

Bir fotonli emission tomografiya (SPECT). Spetsifikligi bo'yicha MRTga qolishmaydi, RPP biriktirilgan eritroitsitlar bilan tekshiruvda, gemangiomma erta bosqichda sovuq o'choq bo'lib ko'rinadi, 1-2 soatdan keyin issiq o'choq. Angiografiya. Yaqin vaqtgacha qilinad, hozirgi vaqtida boshqa noinvaziv usullar uning o'mini bosdilar.

O'sma kapsulaga yaqin joylashgunda biopsiya qilinishi xavfli(qon ketish mumkin).



a-Kapilyar gemangiomma



b-Kavernoziy gemangiomma

Cephalotsevular kartsinoma (jigar raki, hepatoma).

Birlanchi jigar xavfsiz o'smalarini 80-90% tushkil qiladi. Erkaklarda ko'proq uchraydi, rivojilgan nuumlakatlarda 60-70 yoshda rivojlanmaganlarda – 30-40 yoshda.

Etiologiyasi – 1) tsirroz (60-90%) 2) surunkali hepatitlar V va S 3) kantserogenlar 4) tug'ma metabolik kasalliklar. Morfologik: yumshoq to'qimali, stromasiz o'sma, gemorragiya + nekroz, yog' to'qimasi, kaltsinatlar. O'sish turlari: 1)solitar tuzilma (60%) 2) ko'p sonli mayda (2-5 sm) tugunli (20%) 3) diffuz mikroskopik (tsirroza o'xshash) (20%). Qon bilan ta'minlanishi – jigar arteriyasi.

KT. Sezgirlingi tsirroz bilan birga bo'lganda 63%, tsirrozsiz – 80%. Ko'pincha gipotensiv, kamroq izotensiv. Yog'li distrofiya bo'lganda gipertensiv. Strukturasi nogomogen, Ko'rinishi o'sish turiga bog'liq. 1) Solitar tuzilma, chegaralari ko'proq aniq + atrofida tugunli o'zarishlar. 2) ko'p sonli tugunlar (mozaik ko'rinish) 3) diffuz infiltrativ. Hepatomegaliya (+), astsat (+). Atrofida shish (gipodensiv) zona.

KT-kontrast bilan. Erta kontraslanadi, arterial fazada (80%), kontrast tez chiqib ketadi – parenximatoz fazada – gipodensiv.

Sonografiya. Giperexogen nogomogen tuzilma. Atrof shish zonasini gipoexogen. Boshqa belgilari KT o'xshash.

MRT tomografiya ahamiyati KT dan oshmaydi, agar kam bo'limasi.

Radionuklid usul. GBS, GS – sovuq o'choq, gallium qu'llanilganda – issiq o'choq.

Angiografiya. Arteriyadan oziqlanish, qon tomirlarga o'sib kirish, neoplastik qon tomirlar, «ko'leha va ko'lmakchalar» simptomni, arteriovenoz shuntlar.

Adenoma. Yosh gormonal kontraseptivlar qo'laydigan ayollarda eng ko'p uchraydigan xavfsiz jigar o'smasi. Fokal tugunli giperplaziyaga nisbatan 2 baravar kam uchrayıdi. Homiladorlik paytida kattalashishi mumkin. O'sma strukturasiida gemorragiya, nekroz va yog'li o'zgarishlar ko'p bo'ladi. 20% usimptomatik bo'ladi, 40% og'rik, qon ketish 40%, gепатомегалия. Joylashishi kapsul osti o'ng bo'lakda. O'lehamlari katta o'ttacha 8-10 sm. Yumaloq, chetlari aniq tekis psevdokapsulii (shish) tuzilma + oyoqchali (10%). Katta o'lehamli «tugun tugun ichida» ko'rinishda bo'lishi mumkin.

KT. Gipotensiv tuzilma, nogomogen nekroz va qon quylishi sohalari tufayli.

Kontrast KT: erta arterial fazada kontrastlanadi (arteriyadan qon oladi), izo-gipotensiv kechki tasvirlarda.

Sonografiya. Giperexogen nogomogen tuzilma, o'ttasi gipoexogen (+), atrofida gipoexogen zona.


MRT. Ahamiyati KT ga o'xshash.

Radionuklid. GS – o'ttasi sovuq o'choq, atrofi – issiq xalqa shaklidu. GBS – issiq o'choq, gallium – sovuq o'choq.

Angiografiya. Gipervaskulyar tuzilma, geputik arteriya atrofida kattalashgan, gipovaskulyar sohalar, neovaskulyarizatsiya.

Biopsiya. Qon ketish bilan xavfli.

Asoratlari: Qon ketish, malignizatsiya (?), retsidiy operatsiyadan.



FOKAL TUGUNLI GIPERPLAZIYA.

Kam uchrayıdi lekin jiga'dagi xavfsiz o'smalardan uchrashi bo'yicha gemungiomidan so'ng 2 – o'rinda turadi. Hamann yoshda uchrashi mumkin ko'proq 30-40 yoshda ayollarda. Klinika: simptomsiz (50-90%), o'tmas og'rik (10-15%), gепатомегалия. Ko'rinishi: < 5 sm (85%), kapsulasiz tugun (tsirotik tugunga o'xshash), atrof jigar normal, jigar yuzasida joylashadi, +oyoqchali (5-20%), + ko'p sonli (20%). O'ttasi chandiq + arteriovenoz malformatiya, gipervaskulyar o'sma, gemorragiya va kaltsinatlar kam.

KT: izo- og'zina gipotensiv gomogen tuzilma. Kontrast-KT – erta kontrastlanadi (30-60 s) va tez kontrastni chiqarib yoboradi. Parenkimatoz fazada gipotensiv. O'ttasidagi chandiq yaxshi kontrast yig'ib ushlab turadi.

Sonografiya. Gomogen izo-gipo-giperexogen gomogen tuzilma. 18% o'ttasida giperexogen chandiq ko'rindi. Qon tomirlar siljishi.

Doppler. +Ichida tez oqimlar pulsatsiya, atrof qon-tomirlar kengayishi, spitsali g'ildirak simptom, gipervaskulyarizatsiya (ayniqa o'ttasida).

Radionuklid. GS, GBS – normal (50-70%), issiq o'choq (7-10%), sovuq o'choq (30-50%). Texnetsiy biriktirilgan eritrotsitlar – erta issiq o'choq, kechki – sovuq o'choq.

MRT KT ga o'xshash belgilar.

Angiografiya, Dopplerga o'xshash belgilar lekin aniqroq.

METASTAZLAR.

Jigarda eng ko'p uchraydigan xavfli o'sma. Metastazlar asosan yo'g'on ichak (42%), oshqozon, oshqozon osti bezi, ko'krak bezi va o'pka. Klinik: gepatomegaliya, jigar funktysiysi buzilishi. Ko'p sonli yumaloq chegarali aniq tekis, atrofida shish zonası bo'lgan tuzilmalar. Strukturasi va ko'rinishi turli bo'lishi mumkin (ichida suyuqlik, kaltsinat, qon quylish). Qancha o'lehami katta bo'lsa o'shancha strukturasi nogomogen bo'ladi. Ko'p metastazlar gipervaskulyar bo'ladi va jigar arteriyasidan oziqlanadi. O'lehami 90% bolatda 1.5 sm katta bo'ladi. Gistologik turi va ko'rinishi bilan korrelyatsiya yo'q.

Sonografiya. Giper, gipo, izo, geterogen tuzilmalar. Atrofidagi shish zonası gipoexogen.

KT. Izo- gipo, geterogen tensiv tuzilmalar. Kontrast KT mayda metastazlarni aniqlashga imkon beradi va ularning gipervaskulyarligini ko'rsatadi. Metastazlar erta va intensiv kontrast yig'adilar.

MRT. Ko'pincha T1 gipointensiv, T2 giperintensiv. Ahamiyati KT ga o'xshash.

Radionuklid tekshiruvlar. Sovuq o'choqlar, maydalarini (<1.5 sm) faqat bir fotonli emission tomograf aniqlaydi.

Abstsess. 2 xil bo'ladi yiringli va ameba abstsesslari. Birinchisi ko'proq uchrayıdi. Ko'p sonli bo'lishi mumkin. Keksa erkaklarda ko'proq uchrayıdi. Klinika: harorat sehsati (80%), og'riq (70%), kechki terlashlar (40%), qusish va quvvatsizlik (40%), sarg'ayish (0-20%).

Sonografiya. Gipoexogen, aniq o'ttacha exogenlik devor bilan. Distal ultratovush kuchayishi, ichadi suyuqlik nogomogen oddiy suyuqlikka nisbatan exogenligi yuqoriyoq. Ichida gaz bo'lishi mumkin – ultratovushda giperexogen artefaktlar. Atrofida infiltratsiya va gipoexogen (shish) zonası.

KT. Gipotensiv (+20+30 N) yagona yoki ko'p katakli tuzilma, ichida havo (+). Atrofida gipotensiv zona. KT-kontrast bilan devori kontrastni yaxshi yig'adi.

MRT. Ahamiyati KT ga o'xshash.

Radionuklid. GBS, GS – sovuq o'choq. Galliy – issiq o'choq (80%). Indiy-111 biriktirilgan leykotsitlar – issiq o'choq.

Asoratlari: sepsis, yirtilish (diaphragma osti, qorin bo'shligi va perikardga), empiema, o't yo'llari tuzalishi.

Amebik abstsess. Yo'g'on ichakdan keladi. 30-50 yoshdagı erkaklar ko'proq. Nospetsifik ko'rinishi, tugunli devori (60%), ichki septatsiya (to'siqlar) (30%), gaz bo'lmaydi (ichak bilan fistula bo'lmaguncha), +diafragma uzilishi. Sonografiya, KT va MRT ko'rinishi yiringli abstsessiga o'xshaydi. Radionuklid: GS 98% spetsifik – issiq o'choq (?), Galliy – xalka-simon issiq o'choq.

Asoratlari: Diafragma uzilishi (kazm, lekin xos). 2)fistula (yo'g'on ichak, buyrak ustı bezi, o't yo'llari va perikard).

XOLETSISTIT.

O'tkir toshli xoletsistit. 80-90% o'tkir xoletsistitlarni tashkil qiladi. Tosh ductus cysticus kuzatiladi. 50-60 yoshda, ko'proq ayollarda (x3). Klinikasi: og'rik, quşish, ko'ngil aynash, harorat oshishi, + leykotsitoz, qonda fermentlar oshishi, giperbilirubinemiya.

Oral xoletsistografiya. O't qopiyaxshi yoki umuman ko'rinnmaydi (manfiy xoletsistografiya).

Sonografiya. O't qopiyevori qatlinligi 3 mm oshgan, noaniq, 3 qavatlari, o't qopiyattalashishi > 40 sm², datchik bilan bosganda lokal og'rik (Merfi belgisi), tosh va o't nogomogenligi, perixoletsistit suyuqligi. Tosh belgilari – giperekogen, silijidi va orqasida soya beradi, chunki ultratovush yaxshi o'tkazmaydi.

KT sonografiyaga ma'lumot qo'shmaydi.


Radiouniklid. O't qopiy ko'rinnmasligi.

Asoratlari: o't qopiy gangrenasi, perforatsiyasi, empiema.

O'tkir toshsiz xoletsistit. 10% tashkil qiladi. 50% holatda yaqin vaqtida o'tkazilgan jarroxlilik bilan bog'lik. Etiologiya: 1) kam harakatlanish, ochlik kuyishda, travmada, jarroxlididan so'ng, parenteral oziqlanishda, yurak yetishmovchiligidagi va x.k. 2)o'sma va boshqa jarayonlar o't yo'llarini to'sib qo'yishi 3) infektsiya.

Belgilari toshli xoletsistitga o'xshash, faqat tosh yo'q.

Surunkali xoletsistit. Ko'p uchrnydi, tosh, o't qopiyevori qamitashtishiga zinchlashishi, o't qopiyattalashishi va chandiqli deformatsiyasi, Ranzitslyasi buzilgan.



http://www.flipbuilder.com



115-rasm
a- toshsiz xoletsistit



b- toshli xoletsistit

XOLELITIAZ.

Ko'proq keksa yoshda ayollarda uchraydi. Etiologiyasi: 1)gemolitik kasallik 2)metabolik o'zgarishlar (diabet, semirish, giperlipidemiya, gormon qabul qilish va x.k.) 3) xolestatz 4) malabsorbsiya 5) genetik. Turlari: 1) xolesterin (70%) 2) pigment (30%). Toshlarni ko'pi oxaklashmagani bo'ladi (85%).

O't qopidagi toshlarni tasvirlashda sonografiya eng yaxshi usul, o't yo'lligilarni esa – xolangiografiya, xolangiografiya birdaniga davolash muolajalarini o'tkazish mumkin (drenaj, papilosfinkterotomiya, toshni olib tashlash).

PORTAL GIPERTENZIYA (bosim > 10 mm Hg)

Turlari: 1) jigar osti (portal vena trombozi yoki siqilishi) 2)jigar ichki (tsirroz, metastaz va boshqalar), 3) jigar usi (Badd-Kiari sindromi, pastki kavak vena obstruktsiyasi, konstriktiv perikardit, yurak yetishmovchiligi).

Portal venaga qon asosan taloq venasi, mezenterika yuqori va pastki, chap epigastrika, trunkus gastrokolikadan ta'minlanadi, jigaarda 2 chap va o'ng portal venaga va keyin segmentlar bo'yicha bo'linadi.

Porto-kaval anastomozlar.

1) CHap epigastrika – qizilo'nguch – azigos – yuqori kavak

2) Yuqori rektal – o'tta yoki pastki rektal – pastki kavak

3) Paraumbilikal – epigastrika – pastki kavak

4) Kolika – retroperitoneal

Portal gipertenziyada asosiy tekshiruvlar sonografiya va angiografiya.

Sonografiya aniqlaydi: jigar, qon tomirlar kasalligi, portal venada retrograd oqim, kengaygan umbilikal vena, astsiz splenomegaliya.

Angiografiya aniqlaydi – portal venada retrograd oqim va portokaval shuntlar, portal venada bosimni o'lchash mumkin.

Tuzuvchilar: B.R. Axmedov, G.A. Xodjamova

VII BOB

BUYRAK VA SIYDIK YO'LLARI NUR TASHXISI USULLARI

USULLAR – birinchi navbatda sonografiya(UTT), ekskretor urograфия(Rentgenilogik usul), MSKT, MRT va Radioizotop tekshirish usuli (renografiya, PET).

Ultratovush tekshirish usuli –

Sonografiya. Buynuk va uning atrofi to'qimalari patologiyasida birlamchi usul.



Buyrak normada loviyasimon shaklga ega uzunligi 16 sm gacha. Sonografiyada buyrak kapsulasi (giperexogen), po'stloq (gipoexogen), mag'iz (gipoexogen) qavatlari va kosa jomlari (giperexogen) ko'rindi. Sonografiya axamiyati: 1) buyrak anatomiyasi (joylashishi, shakli, o'lchamlari, konturlari), 2) buyrak strukturasini (exogenligi pasaygan – shish, oshgan – sklerotik o'zgarishlar, solid va kistoz tuzilmalar) 3) kosa va jomlar xolati (tuzilmsalar, toshlar va gidronefroz), 4) siyidik nayi yaxshi ko'rinnmaydi (yaxshi apparatlarda faqat proksimal va distal 1/3 qismi ko'rinishi mumkin) 5) buyrak arteriyasi va venasi proksimal va distal 1/3 qismi, dopler orqali qon oqimini o'rganish mumkin 6) buyrak perfuziyasi – rangli dopler orqali o'rganish mumkin 7) buyraklar nafas ekskursiyasi (o'sma atrofida fibroz o'zgarishlarda pasayadi) 8) buyrak atrofi to'qimalar va qon tomirlar (buyrak usti bezi, aorta, pastki kavak vena), lekin limfa tug'unlar kattalashishi ko'rinnmaydi. 9) intervention muolajalarni nazorat qilish.

Buyraklar mag'iz qavati exogenligi taloq, jigar va buyrak po'stloq Professional nisbatan pastroq bo'ladi.

Sonografiya atrof to'qimalarini tasvirlashda – KT va MRTdan qolishadi. Ichakdagi pnevmatoz buyrak tasvirlashga qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Siyidik qopi. Siyidik qopi to'la bo'lishi kerak. Transabdominal va endoskopik usullari bor. Axamiyati – 1) anatomiyasi, 2)sistodinarnogramma (siyib bo'lgandan keyin qolgan siyidik hajmi o'lichash) 3) vezikourteral refluyks o'rganish 4) endoskopik – buyrak raki qancha devoriga o'sganligini ko'rsatadi (bosqichi aniqlanadi).



118-nan. Siyidik qopi UTT tasvidi polipsinos



117-casm. Siyidik qopi UTT

Ekskretor urografiya – rentgenologik usul bo'lib vena ichiga kontrast modda yuborilib tekshiriladi.

Tayyorgarlik. Asosiy maqsad yo'g'on ichakdan gazni yo'qotish. 1) 6 saat ochlik 2) ich yumshatuvchi (30 saat va 24 saat oldin) 3)klizma ertalab va kechqurun. O'tkazilish metodikasi. 1) qorin bo'shilig'ini obzor rentgenografiya qilinadi(bemorni tayyorgarlik holati va rentgen- pozitiv toshlarni aniqlash uchun) 2) qon tomirliga rentgen-kontrast modda yuboriladi 3) vaqt mobaynida 5-7, 10-15, 15-20 min buyrak va siyidik qopi tasviri olinadi. Kerak bo'lsa kechiktirilgan tasvir 40 min - 2 soatgacha yuqtga olinishi mumkin. Buyrak funksiyasi pasayganda infuzion ekskretor urografiya o'tkazilishi mumkin (kontrast qon tomir orqali yuboriladi). Oddiy rentgenografiyadan maqsad 1) bemorni tayyorgarligini ko'rish 2) buyrakdag'i kalsinatlar 3)buyrak atrofidagi to'qimalar patologiyasini ko'rish (yo'g'on ichakdagi gaz, umurtqa).

Ekskretor urografiya axamiyati: 1) siyidik chiqarish yo'llari kosa jomlar, siyidik nayi, siyidik qopi va uretra tasvirlash bo'yicha eng yaxshi usul hisoblanadi 2) buyrak funksional xolatini baxolaydi lekin nisbiy (buyrak ishlayapti/fishlamayapti, yaxshi/yomon ishlayapti), ob'yektiv parametrlar olinmaydi 3) ekskretor urografiyanı nefrografik fazasida (1-2 min kontrast yuborilgandan so'ng), buyrak parenximasini ko'rish mumkin, va buyrnadagi anatomiq va struktura o'zgarishlarni baxolash mumkin.

Ekskretor urografiya qarshi ko'rsatmalar: allergik xolatlar (yod moddalarini ko'tara olmasligi), buyrak, yurak va jigar yetishmovchiligi. Allergik reaksiyalar turi: 1) terida toshmalar, gipotensiya, yurak ritmi buzilishi (bradikardiya, taxikardiya), yuz yoki halqum shishi, bronxospazm. Allergik



119-nan. Ekskretor urografiya (incera)

kasallarga noion kontrast modda ishlatish tavsiya qilinadi, ular 5-10 baravar qimmat, lekin 5-10 baravar asorutlar ehtimoli kamroq. Allergik bemonlarni iloji boricha bosha usullar bilan tekshirish kerak.

Ekskretor urografiya ko'rsatmalar: 1) siydik yo'llari obstruksiyasi - gidrouretronefroz (tosh, o'sma, chandiqli stenoz, tashqaridan ezilishi va bosha stenozlar), stenoz darajasi aniqlansadi; 2) buyrak o'smalari, kistalari va ularning siydik yo'llariga nisbati (xavfsiz tuzilmalar siydik yo'llarini siljitaladi, xavfli - ichiga usib kiradi va "amputasiya" simtomini keltitirib chiqaradi + buyrak funksiyasi (buyrak ishlayaptimi, ishlayaptimi) 4) nefroskleroz, pielonefrit - kosa jomlar xolati + funksional ma'lumot.

Ekskretor urografiya siydik yo'llari ko'rinishi buyrak funksiyasiga bog'liq va u buzilganda siydik yo'llari yaxshi yoki umuman ko'rinnmaydi.



Flip PDF Professional

<http://www.flipbuilder.com>


Retrograd pielografiya.

Bu usul kateterizasiya yo'li bilan o'tkaziladi. Kateter siydik qopni orqali, siydik nayiga ko'tariladi (jomgacha ko'tarish mumkin) va kontrast modda yuboriladi. Kontrast siydik bilan aralashmagan va siydik yo'llari aniq ko'rindi ayniqsa stenozlar va travmalar (ekstravazasiya). Ko'rsatma: ekskretor urografiya yoki bosh noinvaziv usullar siydik yo'llari to'g'risida yetarli ma'lumot bermusa, transkateter mini-invaziv operasiyalar, qarshi ko'rsatmalar: siydik yo'llari yallig'lanishi va ↴

120-nim –
retrograd
pielografiya



121-rasm - Sistoureterografiya



122-nim – Buyraklar MSKTu. A- akvial kesim - nativ, B- akvial kesim - s/v kontrast bilan, C konvar kesim - s/v kontrast




Kompyuter tomografiya. Sonografiya bergan ma'lumotni beradi lekin aniqroq, ayniqsa buyrak atrof to'qimalar haqida (ichaklar, umurtqa, m.iliopsoas, limfa tug'unlar, qon-tomirlar, buyrak ustti bezii va x.k.). Asosan buyrak va

Sistografiya. Siydik qopni to'g'risida sonografiya ko'p xolatlarda yetarli ma'lumot beradi, o'smalar atrofga tarqalganda KT, MRT qo'shimcha kerak bo'lishi mumkin. Sistografiya qo'llanilishi: 1) vezikoureteral refluyus aniqlash, 2) bosha n'zolarga fistula 3) siydik qopni divertikuli.

retroperitoneal o'smalarda qo'llaniladi, ularning bosqichini aniqlash uchun. Spiral kompyuter tomograflar siyidik nayi toshlarini kontrastsiz tashxislashda qo'llanadi va eng yaxshi usul hisoblanadi.


Magnit-rezonans tomografiya. Buyrak va retroperitoneal sexa uchun KTdan qolishmaydi. Qo'llanilishi: 1) buyrak o'smalari ayniqsa rentgenokontrastga allergik yoki buyrak funksiyasi pasaygan kasallarda 2) Kompyuter tomografiyada ko'rinnagan buyrak usti bezi o'smalari 4) buyrak arteriyasi va venasini noninvaziv tusvirlash (MR-angiografiya) 5) Noinvaziv kontrastsiz MR-urografiya 6) diffuz kasalliklar, MRT boshqa usullarga qaraganda po'stloq va mag'iz qavati farqini yaxshi ko'rsatadi, diffuz kasalliklarda bu farq yo'qolishi mumkin, lekin tushxis qimmatga tushadi. Buyrak raki bosqichini aniqlashda KT niftaga Röntgen Professional yaxshiroq.



112-nom – Buyraklar MRTsi. A- aktsial kesim . B -ko'ona/kesim

Angiografiya. Seldinger metodikasi bo'yicha o'tkaziladi. Ko'rsatmalar: 1)buyrak arteriyalari va venalari patologiyasi – tromboz, anevrizma, stenoz, qon ketishi anomal joylashishi, AV-fistula, angioma, arteriovenoz malformasiya va x.k. 2)buyrak o'smalari va kistalari (ularning qon tomiriga nisbatli ko'rinsidi) 3)operatsiyadan oldin 4)endovaskulyar muolajalar (dilatasiya, stentlash,

embolizasiya, qon to'xtatish, xavfli o'smalarga lokal ximioterapiya va x.k.) 5) nefroskleroz (qon tomirlar toraygan va deformasiyalashgan). Angiografiya fazalari: arterial, parenximatoz, venoz va pielografiya.




123-nom – Buyraklar MSKT - angiografiya -kemonar kesim

Radiosuklid sintigrafiya (renografiya). Buyrak funksiyasini o'rganish uchun eng yaxshi usul hisoblanadi. Venaga RFP yuboriladi va uning buyraklarda yig'ilishi grafik yoki statik shaklda ko'rsatiladi. Normada renografik chiziqdagi Gornomat qon-tomir (eng qisqa), sekresiya (3-5 min) va ekskresiya (50% chiqib ketish vaqt 10-12 min).

Patologik chiziqlar:

- 1) parenximatoz – ekskresiya va sekresiya fazalari uzaygan, chiziqni o'zi yassilangan (diffuz yallig'lanish kasalliklarida uchraydi).
- 2) Obstruktiv – ekskresiya fazasi uzaygan (tosh kasallig'i va boshqa turli siyidik yo'lidagi obstruksiya).
- 3) Izostenurik – chiziqdagi faqat qon-tomir fazasi bor. Buyraklar RFP yig'maydi – buyrak yetishmovchiligi.
- 4) Afunktional – bitta buyrak normal, ikkinchisi yig'maydi, grafikda qon tomir fazasidan keyin renografik chiziq pastga ketadi – aplaziya, nefroskleroz, tromboz, distopiya va x.k.
- 5) Reflyuks – ekskresiya fazasida radioaktivlik lokal oshishi reflyuks borligini ko'rsatadi.

Statik stintigrammalar buyraklar tasvirlanadi ularning joylashishi, shakli, o'lchamlari, RFP tekis yoki notekis egishi, o'sma kistalarda sovuq o'choqni ko'rsatadi.




121-nom – radionuklid renografi usuli

7.2. BUYRAK VA SIYDIK YO'LLARI KASALLIKLARINING NUR TASHXISI

Tug'ma anomaliyalar.

- Buyrak aplaziysi. Qarama qarshi buyrak kompensator kattaishgan, distopik bo'lishi mumkin. Boshqa anomaliyalar bilan birga uchrashi mumkin – 2 shoxli bachadon, qon tomirlar anomaliyasi, anorektal atreziya, traxeo-ezofageal fistula va x.s. Angiografiya aplaziya tasdiqlaydi renal arteriya yo'qligini ko'rsatib.



125-nom. A- ekstretra angiografiya (chap buyrak aplaziysi). B-MSKT akvid kesim(chap buyrak aplaziysi), C- MSKT korinat kesim (o'ng buyrak aplaziysi)

- Buyrak gipoplaziyasi. Buyrak normal lekin o'lchamlari kichikrok. Qurama qarshi buyrak kompensator gipertrofialashgan. Gipertenziyaga olib kelmaydi va kasallik tufayli kichraygan buyrakdan ajratilishi lozim. Farqi – gipoplaziyada funksiya saqlangan (ekskretor urografiya va stintografiya), angioarkitektonika saqlangan (angiografiya va rangli doppler).
- Buyraklar distopiysi. Buyrak normada o'ngdan L1-L3, chapdan Th12-L2 darajasida joylashishi kerak. Distopiya pastga yoki qarama-qarshi tomoniga o'tib ketadi. Distopiya turlari: bel (L4-L5 darjasida), enbosh, toz va qarama-qarshi distopiya. Distopik buyrakni nefrotozga uchragan buyrakdan farqlash lozim. Distopik buyrak siyidik nayi qisqa bo'ladi (ekskretor urografiya va retrograd puclografiya) va renal arteriya joylashishi o'zgaradi (angiografiya, MR-angiografiya, sonografiya?). Kuydag'i boshqa anomaliyalar bilan birga uchrashi mumkin – malrotasiya, jom-siyidik nayi o'tish joyi obstruksiysi. Distopik buyrak normalga nisbatan ko'proq shikastlanadi.
- Malrotasiya. Normada buyrak jomi medial joylashadi, malrotasiyada oldinda yoki lateral joylashishi mumkin.
- Buyrak ikkilanishi. Jom va/yoki siyidik nayi ikkita bo'lishi mumkin. Buyrak yuqori qismidan boshlangan siyidik nayi vagina, uretra va rektum bilan bog'liq bo'lishi mumkin va obstruksiyaga yoki ureterosele, pastki esa refluyksga moyil. Ikkiti siyidik nayi birikishi mumkin, bunda biridan biriga reflyuks kuzatilishi mumkin ('yo-yo' reflux).
- Buyraklar birikishi. Ko'pincha pastki polyuslari bilan birikadi va taqasimon buyrak olib keladi. Birikish joyi fibroz to'qima yoki buyrak parenximasidan iborat bo'lishi mumkin. Buyraklar vertikal joylashadilar va jomlar oldinga qaratilgan. Siyidik nayi, joyi o'zgarganligi tufayli, obstruksiya, gidronefroz, infeksiyaga, tosh xosil bo'lishi va travmaga moyil bo'ladi. Kamidan kam buyraklar yuqori polyus bilan birikadilar.

Flip PDF Professional

<http://www.flipbuilder.com>

Buyrak kistaları.

1. Polikistoz. Oğ'rik, gematuriya, buyrak yetishmovchiligi va gipertenziya sababi bo'lishi mumkin. Autosom dominant kasallik, 30 eshdan keyin uchraydi. Ko'pincha ikkala buyrak shikastlanadi. Birdaniga kistalar boshqa parenximatoz a'zolarda uchrashi mumkin, bosh miyada esa



10% hemorlarda anevrizmalar, 20% xolatda siyidik nayida tosh xosil bo'ladi. Kistalar oxaklanishi mumkin. Ultrasonografiyada bu kasallik yuxshi aniqlanadi, buyrak kattalashgan, strukturasida ko'p sonli gipoexogen yumogen, chetlar aniq tekis tuzilmalar. Ultratovush kuchayish effekti xosil qilindi. Professional urografiya buyrak kattalashgan, nefrogrammada oshevynariya sirlo simptomi, kosa jomlar siljishi ko'rindi.

2. Oddiy kistalar. 50 yoshdan keyin 50% odamlarda uchraydi. ko'p sonli bo'lishi, oxaklanishi mumkin. Bu kistalar po'stloq qavatida joylashadi, Ko'pincha klinik belgisiz kechadi. Iekin katta bo'lib og'riq xosil qilishi, erilib ketishi, infeksiya tushishi, qon quylishi mumkin. Tashxis uchun sonografiya yetarli bo'ladi. Belgilar: aniq va tekis chegaralar, gipoexogen tuzilma, orqasida ultratovush kuchayishi effekti. Kista oddiyiga oxshamasa (solid komponenti, strukturasida to'sqichlar, chegaralari notejis, kalsinatlar ko'p bo'lsa) KT qilinadi. Oddiy kista gipodensiv (0-20 N tuzilma), KT-kontrast bilan qilinganda kontrast yig'maydi.

3. Multiloculyar kistalar (ko'p kataklili). Kam uchraydi Iekin ularni boshqa o'xshash xosilalar bilan differensial tashxis o'tkazilishi kerak – xavfsiz kistoz nefroma, kistoz gamsartoma, kistoz Vilms o'smasi va rak.

4. Boshqa kistalar – pielogen (kosacha divertikuli), parapelvikal (jom enida), perinefrik, dializdan so'ng ortirilgan, Von Hippel-Lindau kasalligi bilan bog'liq (markaziy nerv sistemada gemangioblastoma + buyrakda kista, adenoma yoki rakt).
5. Medullary sponge kidney. 1)Buyraklar katta, va mag'iz qavatida kalsinatlar, mag'iz qavati kistaları, kosachalar bilan bog'liq.
6. Papillary nekroz.

BUYRAKDAGI TOSHLAR.

Sonografiyada toshlar faqat 5 mm ko'rina boshlaydi, kosa jomlar giperexogen bo'lgani tufayli. Belgilari giperexogen, akustik soya + gidronefroz belgilari – buyrak kattalashishi, kosalar jom va siyidik nayi kengayishi. Surunkali gidronefrozda qo'shimcha parenximası yupqalashishi + sekresiya buzilishi. Rentgenografiya rentgenpozitiv va negativ toshlar ajratiladi. Pozitivleri ko'proq uchraydi. Rentgen-pozitiv toshlar – Kalsiy oksalat va fosfat (70%) – korall toshlar, struvit (20%) Ko'pincha infeksiya qo'shiladi, sistin (1%), matriks toshlar. Rentgen negativ toshlar – uric acid, ksantin toshlari. Ekskretor urografiyyada belgilari – zinch nefrogramma - "oq buyrak", kosa-jom kontrastlanishi kechiqishi va kengayishi, buyrak kattalashishi. Surunkali bosqichda buyrak ko'rinnasligi yoki ingichka chiziq shaklida ko'rinishi mumkin, kosa jomlar ko'rinnasligi mumkin. Ekskretor urografiya asosiy maqsadi – obstruksiya darajasi aniqlash + funksional ma'lumot. Tosh oxaklashmag'an bo'lsa rentgenologik usullar bo'yicha uni tosh deb bilmaydi. Tosh-kasalligida spiral KT tomografiya eng yaxshi usul hisoblanadi, kontrastsiz buyruk va ayniqsa siyidik nayida 1-2 mm toshlarni aniqlashi mumkin. Xamma toshlar giperdensiv bo'ladi.



129-nom- obzor urogrammasi - chub buyruk tosh; B- ikkala buyraklarda korishlaman toshlar.

NEFROKALSINOZ.

Kortikal (5%) va mag'iz qavati (95%) nefrokalsinozi ajratiladi. Kortikal nefrokalsinoz sababları: o'tkir kortikal nekroz va surunkali gidronefroz. Medullyar nefrokalsinoz sababları: giperparatiroidizm, medullary sponge disease, tubulyar asidoz, giperkalsemiya (sut maxsulotlarini ko'p iste'mol qilish, sarkoidoz, gipervitaminoz D, suyakdagı metastazlar, tireotoksikoza), tuberkulez, giperoksaluriya. Medullyar nefrokalsinozda tosh xosil bo'lishi mumkin va bu tosh buyrak sanchig'i yoki infeksiya sababi bo'lishi mumkin.

Flip PDF Professional
http://www.flipbuilder.com

PARENXIMATOZ KASALLIKLAR (gipertensiya sababi).


O'tkir pielonefrit. Sababi: vezikoureterik refluyks, siyidik yo'llari obstruksiysi.

Sonografiya. Buyrak kattalashgan, exogenligi pasaygan, obstruksiya sababi aniqlanishi mumkin.

Ekskretor urografiya. 1) normal 2) zinch yoki chiziqli nefrogramma, kosa-jomlar kech kontrastlanishi.

KT. Sonografiya ma'lumoti + mag'iz va po'stloq qavati chegarasi yo'qolishi.

Renografiya. Normal yoki obstruktiv chiziq.



130-ekim- UTT tavar kosa-jom sisteması deformasiyosi – o'tkir pielonefrit

Surunkali pielonefrit.

Sonografiya. Buyrak kichiklashgan, kosa jomlar deformasiyalangan, kengaygan, exogenligi oshgan, chegarali notekis. Po'stloq qavati qalinligi kamaygan.

Ekskretor urografiya. Funksiyasi pasaygan, kosa jomlar deformasiyalashgan, kengaygan. KT qo'shimcha ma'lumot bermaydi.

Renografiya – parenximatoz chiziq (sekresiya va ekskresiya pasayishi).

127

O'tkir va surunkali glomerulonefrit. Asosiy kelib chiqish mexanizmi – immunologik.

Belgilari pielonefrit uxshash lekin bu yerda kosa jomlarda o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Ekskretor urografiya uchun qarshi ko'rsatma hisoblanadi.

Buyrak sili. Gematogen o'pka yoki suyakdan keladi. Buyrak po'stloq qavutida ko'p sonli granulemlar (tuberkuloma) rivojlanadi, keyinchalik kosa jomlarga tarqaladi. Ko'plari bitib ketadi, 1-2 tasi ko'rinarli darajagacha rivojlanadi.

Sonografiya. Buyrak kichiklashgan/normal, po'stloq qavati kamaygan/normal, kalsifikatlar (30%), kavitaliya, strikturalar, kosa jomlar deformasiyası, fibroz o'zgarishlar.




Flip PDF Professional

<http://www.flipbuilder.com>

131-sasm- UTT taevir kosa-jom sistemasini deformasiyasini va kengayishini – buyrak sili.

128



132-sasm- MSKT taevir kosa-jom sistemasini deformasiyasini (kavermasi)– buyrak sili.

Ekskretor urografiya boshida normal bo'lishi mumkin, keyinchalik funksiyusi pusayishi ko'rsatadi va + sonografiya ma'lumoti.

KT qo'shimcha ma'lumot bermaydi.

Abscess. Pielonefrit asorati bo'lishi mumkin yoki gematogen tarqalishi turayli kelib chiqishi mumkin (diabetda, narkomanlarda yoki teri infeksiyasida).

Sonografiya. Gipoexogen aralash (kistoz+solid) ko'proq solid struktura. Devori notejis, perinefral to'qimalar yallig'langan. Abscess ichida gaz ko'rinishi mumkin. Ekskretor urografiya. Kosa jomlar siljigan, abscess bo'shlig'i ular bilan bog'liq va ichiga kontrast to'lishi mumkin.

KT. Sonografiya ma'lumoti (gipodensiv tuzilma) lekin aniqrok.



133-nam- UTT nus'ri buyruk parenchimada nizomigezi giroxygen strukturu - buyruk absesi.



134-nam- MSKT nus'ri buyruk parenchimada nizomigezi sindromi, paniefral kleshatka infiltrasiyasi bilan - buyruk absesi.

RENOVASKULYAR KASALLIKLAR.


Renovaskulyar gipertenziyu (5% xamma gipertenziyalardan tashkil qiladi).

Buyruk arteriyasi stenozi. Sababi – ateroma (kekxa, yosh erkaklarda, torayish proksimal 1/3 qismida), fibromushakli displaziya (yosh ayollarda, distal 2/3 qismi, ko'p sonli), arteriya/vena trombozi, anevrizma, siqilishi (fibroz, tuzilmalar),

arteriit, travma. Klinikada – gipertenziya. Sonografiya. Asosiy maqsad parenximatoz kasallik yo'qligini aniqlash. Buyruk kichiklashadi, chegarli aniq tekis bo'ladi. Renal arteriya stenozi ko'rinishi mumkin. Rangli Doppler perfuziya pasayganini aniqlaydi.

Ekskretor urografiya. Buyruk kichik, chegarasi tekis, pielogramma kechikgan, zinch pielogramma (suv va tuzlar oshgan reabsorbsiyasi tufayli), siyidik nayida kollateral qon tomirlari «izi» ko'rinishi mumkin.

MR-angiografiya. Noimvaziv buyruk arteriyalarini tasvirlaydi. Angiografiya. Tasdiqlovchi va davolovchi usul.



135-nam- MSKT angiografiya nus'ri (3-D) - chap buyruk arteriyasi stenozi.

Buyruk arteriyasi tromboz. Klinikada og'riq va gematuriya. Sonografiya buyruk arteriyasida tromb ko'rinishi mumkin. Dopplerda qon oqimi kuzatilmaydi. Buyruk arteriyalar shoxi trombozida, qon oqimi (rangli Dopplerda) faqat usha arteriya hasseyni (konus shaklidagi) kuzatilmaydi.

Ekskretor urografiyanida buyruk, kosa jomlar ko'rinnmaydi yoki nefrogrammada konus simon defekt.



Flip PDF Professional


<http://www.flipbuilder.com>



136-nom- MSKT angiografiya tassisti o'ng buyrak arteriyasi trombozi

Buyrak venasi trombozi. Klinikada xarorat oshishi, og'riq, leykositoz, gematuriya va proteinuriya. Ko'proq erakkarda uchrayıdi, 2 tomondi bo'lishi mumkin. Sabablari: 1) nefrotik sindrom, 2) sianotik yuruk nuqsonalari, 3) o'smalar o'sib kirishi/ezib ko'yishi, boshqa tuzilmalar ezib qo'yishi; 4) gipovolemik shok, giperkoagulyasiya.

Sonografiya. O'tkir bosqichda gipoexogen, kattalashgan buyrak. 10 kundan keyin exogenligi tiklanadi. Parenximasi nogomogen, piramidalar yaxshi ko'rinnaydi. Vena kenagygan, ichida tromb ko'rinishi mumkin, doppler venadagi oqim buzilganligi aniqlanadi. Surunkali bosqichda – atrofiya va zinchashish.



137-nom- MSKT angiografiya tassisti o'ng buyrak venasi trombozi

Ekskretor urografiya. Nefrogramma ko'rinnaydi yoki yomon, uzoq vaqt ko'rinishi mumkin. Kosalar taranglashgan shish tufayli. Venoz kollaterlari siyidik nayida to'lish defekti xosil qilishi mumkin.

Kompyuter tomografiya. Sonografiya ma'lumoti + kontrast qo'llanilganda venada to'lish defekti ko'rindi.

Venografiya. Tasdiqlovchi usul.

BUYRAK TRAVMASI

10% travmalarni xosil qiladi. Radiologik tekshiruvga ko'rsatmalar – gematuriya, gipotensiya, pastki qovurg'alar, pastki ko'krak-bel umurtqalari sinishi. Distopik, taqasimon, gidronefrotik buyrak travmaga moyil.

Darajalari: 1) buyrak kontuziyasi + kapsula osti gematoma 2)buyrak yuzaki yirtilishi (<1sm faqit po'stloq qavati) + perirenal gematoma 3) po'stloq va mag'iz qavati yirtilgan (> 1 sm) + perirenal gematoma 4a) buyrak parenximasini va contra-jom yirtilishi 4b)kon-tomir shikastalanishi (buyrak arteriyasi, venasidan qon ketish, segmental arteriya trombozi 5)ko'p sonli parenxima yirtilishlari (majag'langan buyrak), devaskulyarizasiya - buyrak arteriyasi uzilishi yoki trombozi.

Klassifikasiya.

1. Kichik buyrak shikastlanishi (kosa-jomlar saqlangan) 85% tashkil qiladi, turlari – 1) yuzaki yirtilish (1 sm gacha) 2) intrarenal kontuziyu (gematoma) 3) kapsula osti gematoma, 4) perirenal gematoma 5) kichik segmental infarkt. Xirurgik muolajalar kerak emas.
2. Katta buyrak yirtilishi. 10% tashkil qiladi. Buyrak chuqur yirtilgan: 1) mag'iz qavatigacha (Kontrast KT: yirtilish + perirenal gematoma) 2) kosalargacha (Kontrast KT: + kontrast ekstravazasiyasi); 3) aktiv qon-ketish va pseydoanevrizma 38% xolatlarda gemodinamik dekompensasiyaga olib kelishi mumkin, Kontrast KT erta fazasida massiv ekstravazasiya. Xirurgik muolajalar bemor xolatiga bog'liq.

3. Buyrak katastrofik shikastlanishi. 5% tashkil qiladi. Asosiy belgi massiv qon ketish (erta ekstravazasiya) 1) ko'p sonli yirtilishlar, nefrogrammada yirtilishdan tashqari, buyrak segmenti (lan) ko'rinnasligi mumkin infarkt tufayli, po'stloq qavati yupqa kontrastlanadi kollateral qon bilan ta'minlanish tufayli. 2) buyrak arteriyasi okklyuziyasi. Gematuriya kuzatilmasligi mumkin. Perirenal gematomia yo'q. Nefrogramma yo'q yoki po'stloq qavati yupqa kontrastlanadi (kollateral), arteriya atrofida gemutoma, venani retrograd kontrastlanishi. 3) Buyrak arteriyasi uzilishi (hayotga xavf), kam uchraydi 4) Buyrak vena yirtilishi va trombozi kam uchraydi – kengaygan vena + tromb, buyrak kattalashishi, zichligi (exogenligi) pasayishi, kech nefrogramma, ekskresiya pasayishi.
4. Siyidik nayi-jom shikastlanishi. Kam uchraydi, ko'proq yosh bolalarda. Noto'liq yirtilish 60%, to'liq 40%. Kontrast KT, EU – kech ekstravazasiya, siyidik nayi ko'rinnasligi, ± perinefrik urinoma, 30% umurtqi ko'ndalang o'smalar. Professional

<http://www.flipbuilder.com>

O'SMALAR.

Xavfli o'smalar. Diagnostika uchun birinchi navbatda Sonografiya usuli turadi.

Renal adenokarsinoma (gipernefroma). Buyrak o'smaları 86% tashkil qiladi. Klassik triada - o'g'riq, makrogematuriya va o'simta paypasianishi. 4% ikkala tomonli bo'lishi mumkin. Ko'proq erkaklarda uchraydi (3:1). 60-70 yoshda.

Erta bosqichida klinik belgilari hosil qilmaydi.



138-men- A- Buyrak UTTei -chag' buyrak parenximasiida giperexogen struktura, B- MSKT tassiri: korozor keem -chag' buyrak o'smali



139-men- A- Buyrak UTTei -o'ng buyrak parenximasiida giperexogen struktura, B- MSKT tassiri: korozor keem -o'ng buyrak o'smasi, chig' buyrak kosa-jom fizini va siylik nayini ikkilanshi.

Sonografija. Giperexogen (50-60%) ayniqsa 3 sm kichik bo'lsa, izo va gipoexogen katta bo'lganda. Buyrak kattalashigan, konturlari bo'rtigan, kalsifikasiya 15-20%, chetlari ko'proq aniq, nogomogen nekroz tufayli, 15% xolatlarda kistoz o'sma. Ekskretor urografiya. Funksiya pasaygan, gidronefroz, ekskresiya yo'qligi (venaga o'sgan), o'sma bo'shlig'i kontrastiga to'lishi, kosa jomlar siljishi va invaziysi.

KT. Gomogen solid tuzilma agar < 3 sm. Zichligi > 20 N. 3 sm katta bo'lsa geterogen tuzilma, qon quyilish va nekroz tufayli. Kalsifikat 30%, perinefrik shish, o'smani atrof to'qima, qon tomirlarga invaziysi, retroperitoneal limfadenopatiya. Kontrast KT. Geterogen kontrastlanish. Buyrak venasi trombozi.

MRT. 3-4 bosqichni aniqlashda eng yaxshi usul. Strukturasi geterogen gipo-izo-giperintensiv, T1 ko'proq gipointensiv.

Adenokarsionma bosqichlari.

I o'sma buyrak kapsulasi ichida.

T1 o'sma <7 sm

T2 o'sma 7 sm

II T3a perinefrik yog' to'qimasiga tarqalish

III A buyrak venasi (T3b) yoki pastki kavak venaga tarqalishi (T3c, T4b)

III V N regional limfa tugunlarga metastaz.

III S vena + limfa tugunlarga tarqalishi.

IVA T4a atrof a'zolarga usishi

IVV M uzoq metastazlar

Kistoz adenokarsinoma. 50% bir katakli, 30% xolatda ko'p katakli kista; devoridagi tug'unli kista 20%.

Xavfsiz o'smalar. Kam uchraydi. Xavfli o'smalar bilan differensial tashxis qiyin bo'ladi va Ko'pincha biopsiya talab qiladi.

Adenoma. Simptomsiz, ko'p sonli bo'lishi mumkin. 3 sm dan katta bo'lsa xavfli bo'lishi mumkin. Gomogen, yumalok chetlari aniq tekis (giperexogen) tuzilma. Kontrastni kam yigadi (gipovaskulyar).

Onkositoma. Ko'pincha simptomsiz, ±gipertensiya. Adenomu turi. O'ichamni

Ko'pincha 3 sm dan katta, va 10 sm gacha bo'lishi mumkin.

Gipodensiv/gipoexogen (> 50%), kontrast KTda gipodensiv. Negomogen bo'lishi mumkin (o'rtaida chandiq tufayli). Angiografiyada periferik spoke-wheel belgisi.

Gemangioma, mioma, lipoma va fibroma. Kam uchraydilar. Kavermoz gemangiomada gematuriya kuzatilishi mumkin. Bulardan faqat lipomaga KT da aniq tashxis qo'yish mumkin. Boshqa o'smalar ko'rinishi nospesifik.

Angiomiolipoma. O'rta yosh ayollarda uchraydi. Strukturasida qon-tomirlar, mushak va yog' to'qimalari, gemorragiya soxalari kuzatiladi. O'ichamlari katta bo'lishi mumkin klinikada: gematuriya, og'riq. Agressiv bo'lishi mumkin, lekin metastaz bermaydi. 20% xolatlarda tuberoz skleroz kasalligi bilan birga uchraydi (ikki tomonli).

Sonografiya. Exogenligi juda yuqori tuzilma.

Ekskretor urografiya. Xajmli tuzilma, strukturasida oqarish soxalari (yog').

KT. Yog' to'qimasi, gemorragiya soxalari, estrarenal tarqalish.


Reninoma. Yosh ayollarda. Renin ishlab chiqparadi – gipertensiya. Sonografiyada giperexogen, kontrast KT va angiografiyada – avaskulyur (kistaga uxshab).

Buyrak yetishmovchiligi.

O'tkir. Sabablari – 1) prerenal (qon kam oqib kelishi – gipotensiya, yurak yetishmovchiligi, qon ketish, sepsis) 2) renal ko'proq uchraydi (o'tkir buyrak kasalliklari – nefrit, nekroz, tromboz) 3)postrenal (obstruksiya – tosh, o'smalar).

Surunkali. Sabablari – infeksiya (glomerulonefrit, pielonefrit, sil va sarkoidoz), qon-tomir patologiyasi, disproteinemiya (mieloma, amiloid, globulinemiya), metabolik (diabet, podagra, giperkalsemiya, giperoksaluriya va x.k.), tug'ma (polikistoz, displaziya va x.k.).

Tuzuvchilar: B.R. Axmedov, A.S.Nig'matjanov



FLIP PDF Professional

<http://www.flipbuilder.com>

Adabiyotlar ro'yxati

1. L.D.Lintenbraten, I.P.Korolyuk «Медицинская радиология» 2000 у.
2. A.Vasilyev (научный редактор) «Учебник по клинической и радиологической диагностике»
3. M.Brightenseer, P.Pokiezer, G.Lexner «Учебник по клинической и радиологической диагностике»
4. «Лучевая диагностика. Голова и шея» Кох Б.Л., Гамильтон Б.Э., Хаджинис П.А., Харнсбергер Х.Р.
5. «Компьютерная томография в гастроэнтерологии: руководство для врачей» Китаев В.М.
6. «Магнитно-резонансная томография при заболеваниях и травмах центральной нервной системы» Холли А.В.
7. «Рентгенография мозга» Кори Дж.
8. «Лучевая диагностика. Головной мозг» К. Зартор, С. Хэнисель, Б. Кресс
http://www.Pipbuilder.com
9. «Румбогарт Зорин КТ- и МРТ-визуализация головного мозга»
- 10.«Атлас рентгеноанатомии и укладок» Ростовцев
- 11.«Рентгенография грудной клетки» Кори Дж.
- 12.«Клиническая интерпретация рентгенограммы легких» справочник - Дарби М.